O'zbekiston Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni o'rnatish yo'lida turli muloqot maydonlarini tashkil etib kelmokda. Xususan, rasmiy Toshkent 2018-yil 27-mart kuni bo'lib o'tgan "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik", 2021-yil 15-16 iyul kunlari o'tkazilgan "Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" va 2022-yil 25-26 iyul kunlari "Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot" mavzularidagi xalqaro anjumanlarga mezbonlik qildi. Ushbu xalqaro tadbirlar davomida Tolibon hukumati bilan muloqotning yangi formati shakllandi. Unda ishtirok etgan davlatlar, xalqaro tashkilotlar vakillari, ekspertlar va muvaqqat hukumatning rasmiy delegatsiyasi Afg'onistonni urushdan keyin qayta tiklash va mamlakatdagi gumanitar inqirozni bartaraf etish bo'yicha o'zaro maqbul yondashuvlarni ishlab chiqish masalalarni muhokama etdilar.

Ushbu sa'y-harakatlar Tolibon Muvaqqat hukumatining jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi va Afg'onistonni xalqaro maydonda yakkalanib qolishdan xalos bo'lishga hamda uning mintaq, jahon siyosiy va iqtisodiy munosabatlariga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Afg'onistonda doimiy mustahkam tinchlik va barqarorlikni o'rnatilishi Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida barqarorlikni ta'minlashda va uning iqtisodiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ayni paytda Afg'onistonda tinchlikni mustahkamlash yo'lida O'zbekiston muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Eng yirik iqtisodiy loyihalar qatorida, Toshkent shahrida bo'lib "Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'lik Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan "Termiz-Mozori-Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'li loyihasini qayd etish mumkin.

2021-yil oktyabr oyi boshida O‘zbekiston rasmiy delegasiyasining Kobulga tashrifi va Afg‘oniston muvaqqat hukumati rahbariyati bilan o‘tkazgan muzokaralarida konstruktiv natijalarga erishildi. Hozirda "Termiz-Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" trans-afg‘on temir yo‘lining geoiqtisodiy salohiyati va imkoniyatlarini rivojlantirish masalalari O‘zbekiston - Afg‘oniston - Pokiston siyosiy maslahatlashuvlarining e‘tibor markazida bo‘lib turibdi.

Kelajakda ushbu transmintaqaviy logistika loyihasi Markaziy Osiyo davlatlarini Pokistonning Karachi, Qosim va Gvadar dengiz portlari bilan bog‘lovchi asosiy transport yo‘lagiga aylanishi kutilmoqda. Ushbu transport yo‘lagi 760 kilometr bo‘lib, yiliga kamida 15-20 mln. tonna yuk tashish imkonini beradi.

Shuningdek, 2022-yilning iyul oyida Toshkentda Afg‘oniston muvaqqat hukumati delegasiyasi ishtirokida bo‘lib o‘tgan Afg‘oniston bo‘yicha xalqaro konferensiya jahon hamjamiyatining ushbu davlatga nisbatan muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishdan manfaatdor ekanini ko‘rsatdi.

2022-yilning 16-sentyabrida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan SHHT sammitida Prezident Shavkat Mirziyev Termiz shahrida Afg‘onistonga maxsus insonparvarlik yordami jamg‘armasini tashkil etish, uning mablaglarini ijtimoiy inqirozni bartaraf etish, sog‘likni saqlash sohasida loyihalar hamda yoshlar uchun ta‘lim dasturlarini amalga oshirishga yo‘naltirilish tashabbusini ilgari surdi.

Ta‘kidlash joizki, 2022-yilning 18-oktyabrida Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan "Terrorizmga qarshi kurash va terrorchilar harakatlanishining oldini olish uchun chegaralar xavfsizligi hamda chegara nazorati sohasidagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyada o‘sha vaqtdagi O‘zbekiston tashqi ishlar vaziri Vladimir Norov mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyevning Afg‘oniston masalasi bo‘yicha ilgari surgan tashabbuslari borasida nutq so‘zladi. Jumladan, davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyevning Ostona shahrida bo‘lib o‘tgan "Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha sammitda Afg‘oniston hukumati bilan hamkorlikda belgilangan vazifalarni bosqichma- bosqich bajarish algoritmini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish uchun yuqori darajadagi xalqaro muzokaralar guruhini shakllantirish

to'g'risidagi taklifiga tadbir ishtirokchilari e'tiborini qaratdi. Ushbu mexanizm Afg'oniston muvaqqat hukumati va xalqaro hamjamiyat tomonidan o'z majburiyatlarini bajarishning aniq mexanizmlari, muddatlari va shartlarini belgilash uchun samarali platformaga aylanishi mumkinligini qayd etdi.

O'zbekiston tashqi siyosat mahkamasi rahbari V.Norov(hozirda B.Saidov) Afg'onistonning yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik muhimligini ta'kidlab, xalqaro hamjamiyatni BMT, xalqaro moliya institutlari ko'magida uning iqtisodiyotini tiklash, mamlakatni mintaqalararo iqtisodiy jarayonlarga integrasiya qilish, infratuzilma va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish bo'yicha samarali choralar ko'rishga chaqirdi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston o'z navbatida qo'shni davlat Afg'onistonga yordam berish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarga munosib hissa qo'shmoqda. O'z navbatida, Termiz shahrida xalqaro ko'p funksiyali transport-logistika markazi tashkil etilgan bo'lib, undan BMT tuzilmalari afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatishda faol foydalanmoqda. O'zbekiston transmintaqaviy infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, jumladan, "Termiz-Mozori Sharif-Kobul-Peshovar" temir yo'li qurilishi, shuningdek, BMT ko'magida Toshkent shahrida mintaqalararo o'zaro bog'liqlik markazini tashkil etish taklifi Afg'onistonning mintaqaviy savdo-iqtisodiy munosabatlarga qo'shilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## SIMMENTAL ZOTI SIGIRLARINING YELINI SHAKLI VA SIFATINI O'RGANISH

**Qo'chqorov Abdukarim Nuriddinovich,**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

**Xoljigitov Asqar Ma'rifjonovich,**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

**Elmurotov Sharofuddin Polvonovich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

### ANNOTATSIYA

*Asosiy texnologik belgilari hayvonlarning tirik vazni, konstitutsiyasining mustahkamligi, mashina sog'imiga moslashganligi, mahsuldorligi, kasalliklarga chidamliligi, oyoqlari va tuyoqlarining mustahkamligi, serpushtligi, fe'l-atvori va boshqalar kiradi.*

***Kalit so'zlar:** Simmental, tirik vazn, sut berish tezligi, yelin indeksi, sog'im vaqti, gomogenli juftlash, echki yelin, zot, sigirlarning konstitutsiyasi.*

### АННОТАЦИЯ

*К основным технологическим характеристикам животных относятся живая масса, крепость телосложения, приспособленность к машинному доению, продуктивность, устойчивость к болезням, сила ног и копыт, волосатость, характер и др.*

***Ключевые слова:** Симментальская порода, живая масса, удой, индекс вымени, время доения, гомогенная случка, козье вымя, порода, конституция коров.*



### ANNOTATION

*The main technological characteristics of animals include live weight, constitution strength, adaptation to machine milking, productivity, resistance to diseases, strength of legs and hooves, hairiness, character, etc.*

**Key words:** *Simmental, live weight, milk yield rate, udder index, milking time, homogenous mating, goat udder, breed, constitution of cows.*

Sutchilik va bo'rdoqichilik komplekslariga o'zaro o'xshash va yuqori mahsuldor, bir xil tipdagi podalar zarur. Sog'lom sigirlarning o'rtacha vazni 500-600 kg, sersutligi 4000-5000 kg bo'lishi kerak. Bu narsa ularni bir xil tipda va darajada oziqlantirish uchun zarur. Sigirlarning mashina bilan sog'ishga o'tkazish uchun yelini hajmi, shakli, so'rg'ichlari bo'laklarining teng rivojlanganligi, yelin indeksi, sut berish tezligi, sog'im vaqti va boshqa belgilar bo'yicha tanlash muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki sigirlarning sut mahsuldorligi ko'p jihatdan ularning yelinini shakliga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlarda I –guruhga mansub bo'lgan sigirlarning 2 boshi vannasimon, 6 boshi kosasimon va 2 boshi esa dumaloq shaklli yelina ega bo'lgan. Jami sog'in sigirlar soniga nisbatan bu ko'rsatkich tegishlicha: 20,0; 60,0 va 20,0 foizni tashkil qilgan. II –guruhdagi sigirlarda bu ko'rsatkich: 1 bosh (10,0%), 7 bosh (70,0%) va 2 bosh (20,0%) foizga teng bo'lgan. III –guruhdagi ya'ni go'sht –sut xiliga mansub bo'lgan sigirlarda vannasimon shakliga ega bo'lgan yelin uchramagan, 7 boshi kosasimon (70,0%) va 3 boshi dumaloq (30,0%) shaklli yelina ega bo'lgan.

Sigirlardan olinadigan sutning miqdori va uning sifat ko'rsatkichlari ularning yelinining morfofunktsional ko'rsatkichlariga ham bog'liq ekan. Mahsus tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, I –guruhdagi, sut xiliga mansub bo'lgan sigirlar o'z tengqurlari sut –go'sht va go'sht –sut xiliga mansub bo'lgan tengqurlari, II va III guruhlardagi sigirlarga nisbatan yelin aylanasi bo'yicha 1,2 sm yoki 1,0 foiz va 1,8 sm yoki 1,5 foiz, yelin uzunligi bo'yicha 0,3 sm yoki 1,0 foiz va 1,5 sm yoki 4,2 foiz, yelin eni bo'yicha 0,5 sm yoki 1,7 foiz va 1,4 sm yoki 4,6 foiz, yelinning oldingi qismini

chuqurligi bo'yicha 0,5 sm yoki 1,9 foiz va 0,6 sm yoki 2,0 foiz, yelinning orqa qismining chuqurligi bo'yicha 1,4 sm yoki 3,5 foiz va 1,4 sm yoki 4,8 foiz ustunlik qilgan.

Ma'lumki, yelinning shartli hajmi yelinning aylanasi va oldingi qismining chuqurligi ko'rsatkichlariga bog'liq holda o'zgaradi.

### 1-jadval

#### Tajribadagi sigirlarning yelining morfo-funksional ko'rsatkichlari, sm

Ko'rsatkichlar	Guruhlar	
	I	II
Yelin aylanasi	121,6	120,4
Yelin uzunligi	35,9	35,6
Yelin eni	30,2	29,7
Oldingi qism chuqurligi	27,0	26,5
Orqa qism chuqurligi	29,4	28,0
Yelinning shartli xajmi, sm <sup>3</sup>	3283,2	3190,6
Oldingi so'rg'ichlar uzunligi	8,13	8,10
Orqa so'rg'ichlar uzunligi	7,50	7,40
So'rg'ichlar diametri	2,28	2,25
Yelin indeksi, %	43,2	43,1
Sut berish tezligi, kg/daq	1,25	1,24

Izoh: Yelinni shartli hajmi=yelin aylanasi x oldingi qism chuqurligi

$121,3 \times 27,1 = 3287,2$  (I –guruh)

$120,4 \times 26,7 = 3214,7$  (II –guruh)

$119,8 \times 26,6 = 3186,7$  (III –guruh)

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha gomogenli juftlash natijasida olingan I guruh sigirlari, o'z tengqurlaridan tegishlicha  $92,6 \text{ sm}^3$  yoki 2,8 foiz va  $120,5 \text{ sm}^3$  yoki 3,7 foiz yuqori ko'rsatkichga erishgan. Guruhlar orasidagi farq oldingi so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 0,04 sm yoki 0,5 foiz va 0,04 sm yoki 0,5 foiz, orqa so'rg'ichlar uzunligi bo'yicha 0,10 sm yoki 1,4 foiz va 0,13 sm yoki 1,7 foiz, so'rg'ichlar diametri bo'yicha 0,03 sm yoki 13 foiz va 0,04 sm yoki 1,7 foiz, yelin indeksi (jami sog'ib olingan bir martalik sutni oldingi so'rg'ichlardan olingan qismi) 0,01 va 0,03 foiz hamda sut berish tezligi bo'yicha 0,01

kg/daq, yoki 0,8 foiz va 0,04 kg/daq yoki 4,1 foiz, o'z tengqurlari geterogenli juftlash natijasida olingan, II va III guruhlardagi sigirlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga erishgan. Aynan shu ko'rsatkichlar bo'yicha II va III –guruhlardagi sigirlarning o'zaro farqi birinchisi foydasiga hal bo'lgan. Yelinning morfo –funksional xususiyatlari genetik kelib chiqishi bilan farqlangan sigirlarda sut mahsuloti va uning sifat ko'rsatkichlarini har xil bo'lishiga olib kelgan.

Uzunligi 7-9 sm va tub qismining aylanasi 9-10 sm keladigan so'rg'ichlar mashina sog'ish uchun qulay hisoblanadi. Oldingi so'rg'ichlar orqangi so'rg'ichlardan 0,7-1,5 sm uzunroq bo'ladilar. So'rg'ichlar uzunligi 5 sm.dan qisqa bo'lsa va 9 sm.dan ortiq bo'lsa uzun hisoblanadi.

Respublikamiz xo'jaliklarida urchitilayotgan rejalashtirilgan zotlarga mansub sigirlarda oldingi so'rg'ichlar uzunligi 7,5-8,5 sm, orqangi so'rg'ichlar uzunligi o'rtacha 7,0-7,8 sm bo'lishi aniqlanadi. Ayrim sigirlarda so'rg'ichlar uzunligi 4 sm.dan 11 sm.gacha boradi. So'rg'ichlarning yo'g'onligi yoki aylanasi rejali zotlarda 12 sm.gacha boradi. Sigirlarni mashina sog'ish uchun tanlashda so'rg'ichlarning yelinda joylashishini va ular orasidagi masofani hisobga olish ayniqsa muhimdir. Yaqin joylashgan so'rg'ichlarga sog'ish stakanlarini kiydirish qiyin bo'ladi, so'rg'ichlar juda uzoq (20 sm.dan ortiq) joylashgan taqdirda esa sog'ish stakanlari ularni bukib quyadi, natijada sut kelishi sekinlashadi.

Sigirlarning yengil va tez sog'ilishini ko'rsatuvchi asosiy belgilardan biri sut berish tezligidir. Sut berish tezligiga qarab sigirlar sog'ilishi qiyin, o'rtacha va oson sog'iladigan xillariga bo'linadi. Sut berish tezligi yuqori va o'rtacha sigirlar eng yaxshi sigirlardir. Sut berish tezligi sog'iladigan sutning miqdoriga yelinning sut bilan qanchalik to'lganligiga, sigirlarning necha marta sog'ilishiga, yelinning sig'imiga, uning qanday parvarish qilishiga va sog'ishiga qanday tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq.

O'rtacha sut berish tezligi har minutda 1 kg.dan yuqori bo'lgan sigirlar mashina sog'imi uchun yaroqli hisoblanadi. Sut berish tezligi 1,5-2,0 kg/minut bo'lgan sigirlar juda yaxshi hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Akmalxonov SH.A. CHorvachilik samaradorligini oshirish omillari.
2. Ashirov M.E., Soatov O‘., Ashirov B., Nasriddinov Yo. Turli genotipdagi shvits zotli sigirlarning sut maxsuldorligi.
3. Smakuev D.R. Myasnaya produktivnost skota simmentalskoy porodi razlichnix konstitutsionalnix tipov “Molochnoe i myasnoe skotovodstvo”2014. №1. S. 18-20.

## SUV TEJOVCHI SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING AFZALLIKLARI

**Jo'rayev Zuhridin Akrom o'g'li**

TIQXMMI MTU ning Qarshi irrigatsiya va  
agrotexnologiyalar instituti talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada suv tejoychi innovatsion texnologiyalardan biri foydalanish, tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish orqali umumiy suv zaxiramizni tejab qolishga erishish mumkinligi va tomchilatib sug'orish orqali unumdorlikni oshirish mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Nasos, diskli filtr, to'rli filtr, sug'orish, mavsumiy, tizim, quvur, magistral, tarqatuvchi, o'g'itlash, bosim, tomizgich, shlang, tomizgich, o'g'it, ekin.*

Hozirgi kunda ekologiya va suv bilan bog'liq muammolar yetarlicha. Toza ichimlik bilan bog'liq muammolar afsuski Markaziy Osiyoni ham chetlab o'tmagan. Bunga o'xshash muammolarni bartaraf etish uchun O'zbekistonda ham zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Xususan 2019-yil 6-sentabrda 2020-2030 yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi. O'zbekiston respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasiga ko'ra, suv tejoychi texnologiyalari joriy etilgan maydonlar 2 mln.ga, jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasi 600 ming ga. maydonga tadbir etilib, yiliga 35 - 40% (3,5-4 mlrd kub metr) suv iqtisod qilinadi. Bu suv hisobiga 298 ming ga. foydalanishdan chiqib ketgan maydonlar qayta o'zlashtirish mumkin.

Mamlakat ehtiyojlarini qoplash uchun zarur bo'lgan suv resurslari hajmining faqat 20% ga yaqini mamlakat ichida shakllanadi, asosiy qismi esa transchegaraviy daryolar-Amudaryo va Sirdaryo resurslari hisobiga qoplanadi. So'nggi vaqtda suv

taqchilligi qishloq xo'jaligini rivojlantirishda cheklovchi omilga aylanmoqda. Bu hozirgi kunda suv tejamkor sug'orish usullarini dala sharoitida qo'llash kerakligini taqazo qiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, Buxoro viloyatining sug'oriladigan yerlarni 90 foiziga yaqini turli darajadagi sho'rlanganli hududni sug'orishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash mumkinligini isbotlashni talab qiladi. Hozirgi kunda Buxoro viloyatida sho'r yuvish uchun yiliga o'rtacha 4,2-4,6 milliard m<sup>3</sup> daryo suvlari sarflanishi, natijada kollektor va drenaj tarmoqlari orqali mintaqadan 1,9-2,2 milliard m<sup>3</sup> yer osti suvlariga sizilib o'tilishi sizot suvlari sathining ko'tarilishi va ekin ekiladigan maydonning sho'rlanishiga sabab bo'lmoqda. Buxoro viloyatidagi sug'oriladigan yerlarning 98% nasoslar orqali sug'orilishi, viloyatda suv tanqisligi ekinlarning hosiliga katta ta'sir ko'rsatmoqda, buni oldini olish maqsadida zamonaviy tejamkor sug'orish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **Tomchilatib sug'orish usulini qo'llashdagi asosiy muammolar:**

1. Tomchilatib sug'orish usulida turli tuproq iqlim sharoitlari va ekin turlari, navlari bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmaganligi;
2. Tomchilatib sug'orish usuli sharoitida ekinlarni almashlab va navbatlab ekish tizimlarining yaratilmaganligi;
3. Tomchilatib sug'orish usuliga mos o'g'it turlarining yetishmasligi;
4. Tomchilatib sug'orish usuli yordamida sug'orilganda ekinlarni o'g'itlash tizimlarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;
5. Tomchilatib sug'orish usulida begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar qo'llash tizimining yetishmasligi;
6. Sho'rlangan yerlarda tomchilatib sug'orish usulining ekin turlari va iqlim sharoitlari bo'yicha ilmiy ma'lumotlarning yetishmasligi;
7. Oqava-chiqindi, minerallashgan suvlar bilan ekinlarni tomchilatib sug'orishdagi ilmiy tadqiqotlarning yetishmasligi;

#### **Tomchilatib sug'orishning o'ziga xosligi:**

- ✚ Ildizlar to'ppak bo'lib o'sadi.
- ✚ O'simlik ildizini chuqurga yubormaydi.

✚ Suv va o'g'itlarni yetkazib berish osonlashadi.

✚ O'simlikning suv va o'g'itni tuproqdan olishi osonlashadi

Tomchilatib sug'orishning afzalliklari tomchilatib sug'orishda o'simlik stress holatiga tushmaydi va o'simlik o'sishi uchun maqbul sharoit yaratiladi, natija o'z quvvatining 70% dan ortig'ini hosildorlikka sarflaydi, hosildorlik o'rtacha 50-70% ga ortadi va dala bo'ylab bir xil bo'ladi.

### Tomchilatib sug'orish tizimining umumiy ko'rinishi:

1-suv manbai;

2-nasos qurilmasi;

3-o'g'itlash moslamasi;

4-qumli filtr;


5-disk yoki to'rli filtr;

6-magistral (bosh) quvur;

7-tarqatuvchi quvur;

8-bosim rostlagichlar;

9-tomizgichli shlanglar; 10-tomizgichlar.



### Tomchilatib sug'orishning afzalliklari:

- Tomchilatishda suv tejaladi; talabiga mos miqdordagi suv
- Suv dalaning faqat ekinlar ildizi beriladi;
- Suv dalaning faqat ekinlar ildizi joylashgan qismiga beriladi;
- Sug'orishda o'simlikning
- Tuproqdan suv kam bug'lanadi;
- Suv tuproqqa singib ketmaydi;
- Oqavaga suv chiqmaydi;

Tomchilatib sug'orilganda boshqa sug'orish usullariga nisbatan ekin va tuproq turiga qarab 20% dan 60% gacha suv tejaladi. Tomchilatib sug'orilganda o'g'itlar sarfi kamayadi. O'g'itlar o'simlikning ildiziga yetkazib berilganligi bois uning hosilni shakllantirishdagi ishtiroki keskin ortadi, ya'ni berilgan o'g'itning samaradorligi ortadi. Ekinning suv bilan berilgan o'g'itni o'zlashtirishi 90% dan yuqori bo'ladi. O'g'it tuproqqa solinganda esa ekinga o'g'itning 30-40%igina yetib boradi. Yil davomida beriladigan o'g'itlar miqdori 30% ga kam bo'ladi.

### **Tomchilatib sug‘orishning boshqa afzalliklari**

- Qo‘l mehnati kamayadi;
- Yonilg‘i moylash resurslari sarfi kamayadi;
- Tuproq eroziyasi bartaraf qilinadi;
- Yer osti suvlari sathi ko‘tarilmaydi;

Xulosa o‘rnida aytish mukinki, mavjud suv zaxiralarimiz albatta tugab bitmas emas. Shuning uchun hozirda tomchilatib sug‘orish hamda yomg‘irlatib sug‘orish usullaridan keng foydalanish, suvdan oqilona foydalanish hamda suv zaxiramizni doim to‘ldirib borish muhimdir. Bu borada ishlar bizning mintaqaviy markaz olimlari bilan Mergantex MCHJ va mas‘ul tashkilotlar bilan ishlar olib borilmoqda. Tomchilatib sug‘orishni mukammal tizimli yo‘lga qo‘yish va shu kabi tejamkor usullardan foydalanish mamlakat iqtisodiyotiga ham o‘z ijobiy ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-mart, PQ-179-son Qarori. Paxta maydonlarida tuproq unumdorligini va hosildorlikni oshirish, sug‘orishning yangi texnologiyalarini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. U.Muhamedov, R.Tillayev O‘zbekistonning turli tuproq-iqlim sharoitida takroriy ekinlarning samaradorligini oshirish yo‘llari //Paxta majmuidagi ziroatlar yetishtirish texnologiyasining ahvoli va rivojlantirish istiqbollari.- Toshkent 1996- B. 245-249.
3. Турсунходжаев З. С. Болкунов А. С. Пути увеличения производства разнообразных кормов и зерна в хлопковых севооборотах «Круглогодичное использование орошаемых земель» - Союз НИИХ Тошкент 1981. Труды Союз НИИХ вып.46.с-4-8.
4. Х.Нуров, Г.Ф.Хамроев, Ж.Сирожев, О.Зайниев, М.Мардонов. Преимущества технологии применения посевных машин универсал в бухарской области // Тхе Вай оф Ссиэнсэ. 2019. № 12 (70). Вол. ИИ. – с. 62-64.



## QADIMGI SPARTADA HARBIY TA'LIM

**Obidjonova Gulchexra Mamirjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Sparta davlatining tuzilishi, ijtimoiy hayotning asosiy omili hisoblangan shaxs tarbiyasi, harbiy tizimga asoslangan ta'lim jarayonlari, ularning olib borilishi, amaliyotdagi tadbiri, harbiy soha tarbiyalanuvchilarining huquqlari, majburiyatlari erkinliklari kabi masalalar xorijiy resurslar orqali muxokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *Payonomus, Sparta, sizitsiya, agoge, fitidiya.*

### ANNOTATION

*In this article, issues such as the structure of the Spartan state, personal education, which is considered the main factor of social life, educational processes based on the military system, their implementation, practical application, the rights and obligations of military trainees, are discussed through foreign resources.*

**Key words:** *Payonomus, Sparta, Sycytia, Agoge, Phytidia.*

### KIRISH

#### (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Jahon xalqlarini tarixini chuqurroq o'rganish, tarixan hamda hozirda mamlakatimizda yuz berayotgan jarayonlarni aniq anglash, tahlil qilish, tegishli xulosalar chiqarishimizda bizga keng ko'lamli imkoniyatlarni taqdim qiladi. Zero Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek "Biz jahonda yuz berayotgan har qandaay siyosiy, iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar va yutuqlarni kuzatib borishimiz, manfaatli o'zgarish hamda yangiliklardan unumli foydalanishimiz, zararli oqibatlarini keltirib chiqaruvchi omillardan to'g'ri xulosa chiqara bilishimiz kerak"[1:106].

Darhaqiqat bugungi kunda tarixan yuz bergan va hozirda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlardan to‘g‘ri xulosa qila bilish zamon talabidir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek “Globallashuv O‘zbekistonga allaqachon o‘z ta’sirini o‘tkazib ulgurgan, hozirda mamlakatimizda bir qancha xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan, bir qancha konfessiyalar, milliy madaniy markazlar faoliyat yuritadi”[2:56]. Shunday ekan jahondagi yuz bergan tarixiy jarayonlarni to‘g‘ri tahlil qilish, holisona baholash, kerakli xulosalarni chiqara bilish va amaliyotga tadbiq qilish ijtimoiy va siyosiy sohaning bir bo‘lagi bo‘lgan tarixchilar uchun g‘oyatda muhim va kerakli unsurdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)**

Ushbu ilmiy ishimiz doirasida biz Xorijiy adabiyotlarning ayrim asarlaridan foydalangan holda mavzuyimizning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz hamda ish doirasida asosan o‘zbek o‘quvchilari uchun holisona fikrlarimizni taqdim etib boramiz. Mavzuning mohiyatini ochishda asosan Oxford University press nashri tomonidan tavsiya etilgan mavzuga oid adabiyotlardan foydalanamiz.

### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

Qadimgi Sparta yunon boshqa yunon polislariga mutloqo o‘xshamaydigan asosda tuzilgan bo‘lib, tashqaridan qaraganda Sparta jangchilar mamlakati edi[3:255]. Mamlakat aholisi majburiy mehnat, uy-ro‘zg‘or ishlari kabi faoliyatlar bilan umuman shug‘ullanmas edilar, ularning birdan-bir hamda yagona ish jang qilish edi[4:156]. Bundan ko‘rinadiki mamlakat harbiy asosda qurilgan bo‘lib unga bo‘lajak jangchilarni tarbiyalash, mamlakatni harbiy asosda qurish va boshqaruvni yo‘lga qo‘yish muhim bo‘lgan.

Spartada shaxs tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratilgan edi hamda yosh avlod tug‘ilishi bilan uni jismoniy holatiga qaralgan, agar nasl sog‘lom va baquvvat bo‘lsa olib qolingan va aksinva bo‘lgan holda undan voz kechilgan edi. Spartada o‘g‘il bolalar 7 – 12 yoshga kirganlarida, ular o‘z oilalaridan olib ketilgan hamda ta’lim berish uchun agogelarda olib borilgan. Keyinchalik ular o‘zlari kabi qarindoshlari bilan

chaylalarda yashash va ularni Payanomus mansabidagi shaxs nazorat qilar edi. Ushbu mansabdor shaxs Spartaning eng yaxshi va obroli shaxslaridan tayinlanar edi. U ta'lim yo'nalishini nazorat qilar edi. Uning maqsadi jang san'atida mohirona, kuchli va jismonan tanasi qotgan jangchilarni tayyorlash edi[5:175].

12 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davrda harbiy mashg'ulotlarga katta e'tibor qaratiladi. Ushbu davrda aksariyat qismida tarbiyalanuvchilar yalangoyoq yurishlari, buning natijasida oyoqlari pishishi, qotishi kerak edi, shuningdek ular yil davomida faqat bitta kiyimda yurishlari shart edi. Ular o'zlari yashash joylarini ozoda saqlashlari tartib intizomga qattiq bo'ysinislari kerak edi. Ularga belgilangan tartibda ratsion va oziq ovqat yetkazib berilgan. Ammo bazida mahsulotlar atayin yetkazib berilmasdi bundan asosiy maqsad esa ularni yo'qchil sharoitda ov qilish va o'g'irlik qilish kabi usullar yordamida o'zlarini - o'zlari ta'minlashlariga undar edilar. Bunday sharoitda o'g'irlik ayb sifatida qabul qilinmas edi[6:120].

#### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

18 yoshdan 20 yoshgacha bo'lganlar esa, 20 yoshdan oshganlar qo'mondonligi ostida kunduzgi harbiy mashg'ulotlarda qatnashganlar. 20 yoshdan oshganlar esa chegara zonalarida qo'riqlash ishlarini olib borish bilan birga, harbiy dala mashg'ulotlari bilan ham shug'illanishlariga ruhsat etilgan edi. 24 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan jangchi fuqorolar orasidan gippiylar saralab olinar edi. Ularni Spartaning hurmatga sazovor bo'lgan uchta fuqorosi saralab olar edilar. Ularni saralab olish jarayonida agogelarda ta'lim olgani va olmaganligi hamda shaxsiy sifatlari aniq inobatga olinar edi. Gippiylar soni har bir vakil shaxsning soniga mutanosib ravishda 300 ta bo'lishi kerak edi, ular qirolning shaxsiy jangchilari va tan soqchilari vazifasini o'tagan edilar. Spartada jangchilarni tarbiyalashda bir qancha majburiyat hamda qiyinchiliklar mavjud ekanligini ko'rib o'tdik, bir qancha majburiyatlar 20 yoshdan keyin deyarli tugatiladi. Ammo fitidiya va sizitsiya kabi kechki ovqatlanish majburligicha qoladi, hatto bu Sparta janchilari uchun faxrli hisoblanar edi.

## **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Sparta davlatining tuzilishi haqida gap ketganda ko'pchilik o'zbek nashrlari uning jangchilar mamlakati bo'lganligi, qurollangan xolatdagi, harbiy shay insonga qiyoslashlari juda ham ko'p ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy, nega? Nega unga bunday o'xshatuv qo'yilgan, ularda ta'lim, yoshlarning tarbiyasi kabi masalalar yopiqmi?. Aslini olganda Spartadagi tuzumning asosiy jihati jangchilikka, harbiy boshqaruvga asoslangan bo'lishiga qaramay, u yerda ta'lim tarbiya masalalari ham yuqori darajada qaralgan jihat bo'lgan, chunki yuksak salohiyatli jangchilar Sparta uchun muhim bo'lgan. Jangchilarni tayyorlash, ularga tirik qolish, yashay olish, qiyin vaziyatlarda o'zini omon saqlash, doim g'alabaga intilish, vatanni sevish, jasorat kabi tushuncha va ta'lim unsurlari chuqur o'rgatilgandir. Ularning ta'lim olishi davlatning tuzilishi va faoliyati bilan bog'lasak ular harbiy ta'lim olganlar, ta'lim jarayonlari bu yerda ham mavjud edi, faqatgina harbiy kategoriyada. Xulosalarimiz shulardan iborat bo'lib yakuniy xulosani ilm ahillarining o'zlariga havola qilamiz.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Rustam Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. Fan va texnologiya, 2009.
2. Boynazarov F. A. Qadimgi dunyo tarixi. T.:2004.
3. Колобова К. М. Древняя Спарта X – VI вв. дою н. эю Л.:1957.
4. John Bintliff, The Complete Archaeology of Greece: from Hunter-Gatherers to the 20th Century A.D., *Wiley-Blackwell*, 2012.
5. Paul Cartledge. Sparta and Lakonia. London and New York, 2002.
6. Lazenby.J.F., The Spartan Army, L.: 1986.
7. Godfrey Hutchinson. Sparta unfit for empire. London Frontline Books, 2014.
8. Sarah B. Pomeroy. A Brife History Anicent Greece. Oxford University Press, 2004.

## ЎҚУВЧИЛАРДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

**Наби Шаропов**

Термиз давлат университети

Психология кафедраси ўқитувчиси

***Аннотация:** Ушбу мақолада ўқувчиларни мустақил фикрлаш, муаммога ижодий ёндошиш, ақлий фаолиятни ривожлантириш бугунги кунда долзарб масалалардан бири эканлиги ўрганилган. Шу боисдан таълимда туб ўзгаришлар ясаш, фаол, ижодкор, ақл-заковатли зиёли мутахассисларни тайёрлашнинг илмий асосларини яратиш қатор фанларнинг шу жумладан психологиянинг долзарб вазифларидан бирига айланмоқда.*

***Калит сўзлар:** Мустақил фикрлаш, ижод, муаммоли вазият, мураккаб боғланишлар, қонуният*

Бугунги кунда олдимизга қўйган юксак мақсадларимизга, ниятларимизга эришишимиз, жамиятимизнинг янгиланиши, ҳаётимизнинг тараққиёти ва истиқболи, амалга оширилаётган ислохотларимиз, режаларимиз самараси тақдири авваломбор, замон талабларига жавоб берадиган юқори малакали, онгли, мустақил фикрловчи ижодкор мутахассис кадрларни тайёрлаш муаммоси билан боғлиқ. Ижодкор, фаол, мустақил фикрловчи шахсни тарбиялаб вояга етказиш учун таълим тизмида муҳим ўзгаришлар ва қайта қуриш ҳаётий зарурат бўлиб қолмоқда. Шу боисдан таълимда туб ўзгаришлар ясаш, фаол, ижодкор, ақл-заковатли зиёли мутахассисларни тайёрлашнинг илмий асосларини яратиш қатор фанларнинг шу жумладан психологиянинг долзарб вазифларидан бирига айланмоқда.

Фикрлаш ёки фикр юритиш ўқувчи ақлий фаолиятининг, ақл заковатининг, муомала маромининг, онгли хулқ-атворининг юксак шакли бўлиб ҳисобланади. Тафаккур сифатлари шахснинг шундай хусусияти, унда фикрлаш фаолиятининг сифати ошади, муаммога ойдинлик киритилади.<sup>1</sup> Мустақил фикрлаш теварак-атрофни, ижтимоий муҳитни ҳамда воқеликни билиш қуроли, шунингдек, Ўқувчининг кенг кўламли ақлий фаолиятини оқилона, омилкорлик билан амалга оширишнинг асосий шарти саналади. Мустақил фикр юритишнинг рўёбга чиқишида Ўқувчида фикр, мулоҳаза, ғоя, фараз, мақсад кабилар вужудга келади ва улар шахс онгида тушунчалар, ҳукмлар, хулосалар сифатида ифодаланади. Мустақил фикр юритиш тил ва нутқ билан чамбарчас боғлиқ равишда намоён бўлади, ҳамда улар узлуксиз тарзда бир-бирини тақозо этади. Худди шу боис Ўқувчи ўзининг мустақил фикрлаши (мулоқоти), нутқи, онгли хулқ-атвори туфайли борлиқдаги мавжудотлардан тубдан ажралиб туради.

Таълим жараёни ижодий изланишлар, ақл заковат заҳираларини ишга сола билиш, ақлий қобилиятни сафарбар қилиш имкониятларига эга бўлган шахснинг етуклик даври ҳисобланади.<sup>2</sup> Ўқувчи мустақил фикр юритиш фаолиятида ўзи акс эттирган, сезган, идрок қилган, тасаввур этган, эслаб қолган нарса ва ҳодисаларнинг тўғрилиги, аниқлиги, ҳақиқийлиги, ҳаққонийлиги ёки уларнинг воқеликка мос (муносиб) тушиши ва тушунмаслигини аниқлайди. Борлиқни билиш жараёнида ҳосил қилинган ҳукмлар, тушунчалар, хулосалар, фаразлар (тахминлар), қарор қабул қилишлари чин ёки чин эмаслигини белгилаб олади. Ўқувчи мустақил фикрлаши туфайли воқеликни умумлаштирган ҳолда билвосита ёки бевосита акс эттиради, нарса ва ҳодисалар ўртасидаги ички, мураккаб боғланишлар, муносабатлар, хоссалар, хусусиятлар ҳамда механизмларни тушунади, англаб етади. Бинобарин, ўқувчи муайян қонун, қонуният ва қоидаларга асосланган ҳолда табиий, ижтимоий ҳодиса ва воқеаларнинг вужудга келиши, кечиши, ривожланиши ҳамда уларнинг

<sup>1</sup> Усманова.Э.З, Пронин.Р.О. Психокоррекция познавательных процессов. Учебно-методическое пособие. Т.; 2018 г. 83-с

<sup>2</sup> З.Т.Нишанова, П.С.Эргашев. Олий мактаб психологияси. -Т.; 2012 й. 124-б

оқибатини олдиндан пайқаш, башорат қилиш имкониятига эга. Ҳозирги замон ўқувчисининг билиш ва амалий фаолиятини оқилона, омилкорлик билан ташкил қилишда мустақил фикр юритишнинг аҳамияти алоҳида аҳамият касб этади.

Мустақил фикрлаш ақлий фаолият сифатида таҳлил қилинганда ўқувчи томонидан масалалар ва топшириқларни ечиш назарда тутилади, уларнинг шартларида, моҳияти, тузилиши, шакллари ва шахснинг англашув, тушунув имкониятларида кузатилади. Масала, муаммо, топшириқ ечиш (ҳал қилиш, бажариш) ўқувчининг эҳтиёжи, қизиқиши, майли, мотивацияси, ақлий қобилияти, истеъдоди, салоҳияти билан боғлиқ ҳолда олиб қаралади, муаммо томонидан қўйилган талабларни қабул этиш, шахсий қарорга келиш, ечимни топиш учун воситалар қидириш ижод, изланиш ва фикрлашнинг мустаҳкам негизини ташкил қилади. Мустақил ва ижодий фикрлаш фаолиятида муаммо ечимини топиш жараёнини бошқариш, борлиқни инъикос қилишда ўқувчининг ҳис-туйғулари, ички кечинмалари, фавқуллоддаги вазиятлари, объектив шароитлари унинг учун алоҳида аҳамият касб этади.

Ўқувчида мустақил фикр юритиш муаммоли вазият вужудга келишидан бошланади, лекин мазкур вазият туғилиши, ечими бу билан тугалланмайди. Ўқувчида билишга нисбатан мойиллик, ихтиёрсиз хатти-ҳаракат муаммоли вазиятгача ёрқин бўлмайди, у ноаниқ ҳолда юзага келади, сўнгра бу маънода ечимга муҳтож муаммоли вазият яралади ва ниҳоят унинг ечими топилса, лекин билишнинг муаммодан кейинги босқичи фикрнинг ўз йўналишида ихтиёрсиз давом этаверади (муаммогача ( муаммоли вазият ( муаммодан кейинги вазият).

Ўқувчиларни мустақил фикр юритишга ўргатиш учун муаммонинг маънавий, шаклий, тузилмавий жабҳаларини ҳисобга олган ҳолда қуйидагиларга диққат-эътиборни йўналтириш мақсадга мувофиқ:

- саволлари аниқ қилиб берилмаган муаммолар, масалалар, топшириқларда улар ўртасидаги боғлиқликлар, алоқалар, муносабатлар Ўқувчи томонидан таҳлил қилингандан кейин ифодалаб бериладиган саволларнинг вариантларидан бири қавс ичида кўрсатилади;

- берилганлари етишмайдиган муаммолар, масалалар, топшириқлар, уларни ечиш (бажариш, ҳал қилиш) учун етишмайдиган маълумотлар қавс ичида қолади;

- ортиқча маълумотларга, тафсилотга эга бўлган муаммо, масала, топшириқ, ортиқча маълумотлар билан берилади;;

- бир неча йўл билан, усул билан, босқич билан ечиладиган, ҳал қилинадиган, бажариладиган муаммо, масала, топшириқ, бу ўринда турли масалалар (муаммолар, топшириқлар) берилади, бунда ечимнинг энг қулай, оддий, энг тежамли, омилкор йўли иложи борича яширинган ҳолда ҳавола этилади, муаммолар фикрлашнинг бир усулидан иккинчисига, бир оддийроқ ҳукмдан мураккаброғига, бир хулосадан унинг алоҳида кўринишларига, шаклларига ўтиш Ўқувчи ақлий қобилиятини шакллантиришга қаратилган бўлади;

- мазмун ва моҳияти ўзгариб турадиган муаммолар, масалалар, топшириқлар, уларда ҳам битта мустақамланган ақлий хатти-ҳаракатлардан бошқасига ўтишдан иборат ақлий қобилият таркиб топтиришга йўналтирилади, яъни уларни янги вазиятга, объектга кўчиш жараёнида фойдаланишга ўргатилади;

- исботлашга, кашф қилишга, янгилик очишга мўлжалланган муаммолар, масалалар, топшириқлар, улар ёрдами билан мантиқий фикрлаш ички муносабатларни далиллаш, қонуниятларини англаш сингари ақлий қобилият ткомиллаштиради;

- мустақил фикрлашга, мантиқий мулоҳаза юритишга муаммолар, топшириқлар, масалалар, уларни ечиш(ҳал қилиш) учун ҳеч қандай махсус билимлар талаб қилинмайди, лекин бунда маълум даражада ижодкорлик кўрсатиш, ҳаётга мурожаат этиш, мантиқий мулоҳаза юрита олиш имконияти тақозо қилинади, уларнинг баъзилари математик хусусиятли, бошқалари эса, фақат мантиқий бошқотирма шаклида ҳавола этилади.



Хулоса қилиб шуни айтиш керакки, бугунги шиддат билан таракқий этаётган даврда ёшларни теран фикр, ижодкор, юқори салоҳиятли интеллект эгалари бўлишлари учун ҳамда келажак ривожини таъминлаш учун ўқувчиларда мустақил фикрлашни, ижодий изланишни, ақлий фаолият усулларини шакллантириш мақсадга мувофиқ.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Каримова В.М. Аудиторияда баҳс-мунозарали дарсларни ташкил этишнинг психологик технологияси. – Т.: «Университет», 2000.
2. Каримова В.М., Суннатова Р.И., Тожибоева Р.Н. Мустақил фикрлаш. / Академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари учун ўқув қўлланма. – Т.: «Шарқ», 2000.
3. Матюшкин А.М. Некоторые проблемы психологии мышления. «Психология мышления». / Сборник переводов с английского и немецкого под ред. А.М.Матюшкина. М.: «Просвещение», 1965.
4. Муҳаммаджонов А. Школа и педагогическая мысль узбекского народа XIX – начала XX в. – Т.: «Фан», 1978.
5. Нишанова, Эргашев.П.С. Олий мактаб психологияси.-Т., 2012 й,
6. Рахманова Н.Р., Умаров Б.М. Психологические основы учебно-познавательной деятельности вуза. – Т.: ИПТД имени Гафура Гуляма, 2008.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Asatov Akbar Laziz o‘g‘li**

O‘zbekiston Milliy universiteti

Yurisprudensiya(biznes huquqi)

yo‘nalishi talabasi

*ANNOTATSIYA. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan prezidentlik institutini shakllantirish jarayoni va unda saylov tizimi o‘ziga xos xususiyatlari. Saylov demokratik jamiyatda muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda davlatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatligiga, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlar tashkil etilish huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov o‘takazishning tamoyillari, nomzodlarga qo‘yilgan talablar, saylov huquqi prinsiplariga oid asosiy tushunchalar to‘g‘risida so‘z boradi.*

***KALIT SO‘ZLAR:** demokratiya, saylov, prinsip, prezident, legitimlik, deputat, respublika, parlament, konstitutsiya, kodeks, siyosiy partiya, kodifikatsiya.*

### **KIRISH**

Saylov siyosiy rejimi demokratiya bo‘lgan davlatlarning taraqqiyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshiradigan muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut hisoblanadi. O‘zining bosh maqsadi fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik huquqiy davlat qurish bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida o‘z oldiga qo‘ygan yo‘lga erishish uchun asosiy tamoyillaridan biri xalq hokimiyatchiligini ta‘minlash hisoblanadi. Saylov esa bunda katta rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida saylov tizimi maxsus bobda alohida institut sifatida mustahkamlangan. Bu XXII bob bo‘lib, u 128-129-moddalarni o‘z ichiga oladi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov saylovga quyidagicha ta’rif berganlar: “Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o‘zaro birlashib ketgan. Saylovlar – demokratiya degani. Demokratiya – <sup>3</sup>[O‘B]. Bundan tashqari 2019-yil 25-iyunda saylov to‘g‘risidagi normalar O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksini qabul qilinishi orqali yagona hujjatga jamlandi. Bu esa saylov qonunchiligining takomillashtirilishida va yanada demokratlashtirilishi uchun katta yutuq bo‘ldi. Jamiyatning rivojlanishi saylovlarni yanada takomillashtirish va demokratlashtirishni taqazo etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Yaqinda “Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar” shiori ostida bo‘lib o‘tgan saylovlar natijasida respublikamizda demokratik islohotlarni yuqori bosqichga olib chiqish uchun zarur bo‘lgan yangi siyosiy muhit vujudga keldi<sup>4</sup>[O‘B], - degan so‘zlari bunga yaqqol isbotdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

### Mamlakatimiz va xorijiy olimlarning fikrlari

Saylov qarindosh siyosiy-huquqiy institutlarda bevosita demokratika, xalqning (fuqarolarning) kollektiv huquqi, ijtimoiy hayotning alohida instituti sifatida joy oladi va uni demokratiyaning tizimida o‘z o‘rniga ega ekanligini ko‘rishga yordam beradi<sup>5</sup>. Novikovni ta’kidlashicha Saylovlar hokimiyatni qonuniylashtiradi ya’ni ularning faoliyati uchun qonuniy asos yaratadi. Lavozimlarni umumiy saylov orqali amashtirilishi majoziy ma’noda aytganda, legitimlikning eng yuqori darajasi hisoblanadi, ayniqsa, nomzod ko‘p ovoz olib g‘alaba qozonganda”<sup>6</sup>. Har qanday davlatni demokratik davlat deb e’lon qilishning o‘zi kifoya emas, muhimi, uning

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Parlament – jamiyat hayotining ko‘zgusi. // O‘zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. To‘plam.: “O‘zbekiston”, 2005. 13-bet. Mirziyoyev fikrlari.

<sup>4</sup> Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: “O‘zbekiston”, 2018. 1-tom, 96-bet.

<sup>5</sup> Torshenko A.A. Tregubenkov V.A. Rossiya Federatsiyasida saylov tushunchasi // Rossiya yuridik jurnali. №2. 2001. 44-b.

<sup>6</sup> Novikov M.S Saylovlar tushunchasi, ularning xalq hukmronligidagi o‘rni // Rossiya qonunchiligidagi kamchiliklar yuridik jurnali. 2009. 34-b.

tashkil etilishi va faoliyatini tegishli huquqiy institutlar, huquqiy kafolatlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Bunda – konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning tizimida saylov huquqi instituti muhim rol o'ynaydi"<sup>7</sup> deydi tandiqli olim Husanov.

### MUHOKAMA

Hozirda barcha mamlakatlarda prezident lavozimi ma'lum muddatga saylab qo'yiladi. Lekin ularning qanday tartibda saylanishi esa davlatning boshqaruv shakliga bog'liq hisoblanadi. Masalan, parlamentar respublika bo'lgan mamlakatlarda davlat boshlig'i odatda parlament a'zolari (Italiya, Chexiya) yoki maxsus kengash tomonidan saylanadi. Agar davlat prezidentlik yoki aralash respublikasi bo'lsa davlat boshlig'i bevosita xalq tomonidan saylanadi (Fransiya, Rossiya)<sup>8</sup>. Bizning mamlakatimizda ham prezident umumxalq saylovlari asosida o'z lavozimiga saylanadi.

Prezidentlik davlat hayotida eng kerakli institut hisoblanadi. Shuning uchun Konstitutsiyamizda bunga oid aholida bob ajratilgan (XIX bob). Shu bobning 106-moddasida va Saylov kodeksining XII bobida aynan Prezident saylovining o'ziga xos xususiyatalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida Prezident umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Saylov kodek(bundan keyin matnda kodeks)ining 3-moddasiga ko'ra bular saylovning asosiy prinsiplari hisoblanadi va ularning har biri uchun alohida-aholida moddalar ajratilgan.

Xususan, kodeksning 4-moddasiga ko'ra umumiy saylov prinsipi bu saylov kuni o'n sakkiz yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egaligidir. Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatlaridan qat'i nazar, bir xil saylov huquqiga egadir.

5-moddaga ko'ra esa teng saylov huquqi saylovda ishtirok etuvchi har bir fuqaro bir ovozga ega bo'lishi hisoblanadi. Lekin, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun

<sup>7</sup> Husanov.O.T Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: "Yuridik Adabiyotlar Publish", 2022. 209-b.

<sup>8</sup> Husanov.O.T Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: "Yuridik Adabiyotlar Publish", 2022. 245-b.

sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmaydi.

To'g'ridan-to'g'ri saylov huquqiga esa 6-moddada shunday ta'rif berilgan, har bir fuqaro Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarini, mahalliy Kengashlar deputatlarini, shuningdek Prezidentni saylashda bevosita o'zi shaxsan ovoz berish orqali saylovda ishtirok etishini bildiradi.

Yashirin ovoz berish prinsipi kodeksning 7-moddaga asosan saylovchilarning ovoz berishiga hech kim ta'sir qila olmasligi hisoblanadi. Fuqarolarning xohish-irodasiga hech kim ta'sir etolmaydi va ular qo'rqmasdan o'zlari istagan nomzodga ovoz berishadi.

Kodeksning 61-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida o'n yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lishi mumkin emas. Qasddan sodir etgan jinoyati uchun oldin sudlangan fuqarolar, diniy tashkilotlar va birlashmalarning professional xizmatchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod etib ro'yxatga olinmaydi. Bundan tashqari, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar va sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Rossiya Federatsiyasining qonunchiligiga nazar tashlasak, ushbu davlatda ham nomzod 35 yosh bo'lishi, kamida 10 yil davlat hududida muqim yashagan bo'lishi kerak. AQSH davlatida ham saylanovchi 35 yosh bo'lishi, lekin mamlakat hududida 14 yil muqim yashagan fuqaro nomzod bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodni saylov kompaniyasi e'lon qilinganligidan kamida to'rt oy oldin belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan siyosiy partiyalar ko'rsatish huquqiga ega. Yuqoridagi norma kodeksning 62-moddasida belgilangan.

Kodeksning 63-moddasiga asoslanib saylovda ishtirok etish uchun siyosiy partiyalar saylovga kamida yetmish kun qolganida saylovda ishtirok etish to'g'risida partiya rahbari tomonidan imzolangan ariza, Adliya vazirligining siyosiy partiyaning ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotnoma va Prezidentlikka bo'lajak nomzod to'g'risida ma'lumotlar aks etgan ujjatlarni Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etishi kerak, Hujjatlar topshirilganidan so'ng Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiyaning ishtirok etishi uchun ruxsat etuvchi qaror qabul qiladi hamda siyosiy partiyaning vakolatli vakiliga ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi guvohnoma beradi.

Prezidentlikka nomzodlar ko'rsatish tartibi kodeksning 64-moddasida belgilangan. Unga ko'ra saylovga oltmish besh kun qolganida boshlanadi va qirq besh kun qolganida tugaydi. Nomzodlar ko'rsatish siyosiy partiyalarning yuqori organlari tomonidan amalga oshiriladi va bitta nomzod ko'rsatilishi mumkin. Siyosiy partiya nomzodlikka faqat o'z partiyasi a'zolari orasidan yoki partiyasizni nomzod etib ko'rsatishga vakolatlidir. Shundan keyin Prezidentlikka nomzod ko'rsatilganligi to'g'risida bayonnoma tuziladi. Siyosiy partiyaning rahbari nomzodni ro'yxatga olishni iltimos qilib Markaziy saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat etadi. Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

Механизм психологической помощи семьям детей с особыми нуждами , при расстройстве психоэмоциональное напряжение родителей при восприятия ребёнка с отклонениями в развитии . Родители не должны паниковать , а действовать во благо ребёнка. Тем самым они показывают положительный пример своему ребёнку в будущем . Обращение родителей к психологу является важнейшим фактором и помощью своему ребёнку , ведь самостоятельно выйти и организовать помощь своему ребёнку родителям будет очень трудно .

Психолог позволяет ребёнку получить оптимальное развитие , успешное адаптирование в социальной среде .

### Список литературы :

1. I shmatova, O. (2023). THE EFFECTIVENESS OF USING PHONETIC RHYTHM IN SPEECH DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. *Science and innovation*, 2(B5), 232-236.

2. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 13(1), 79-85.

3. O.S. Ishmatova. Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning og'zaki nurqini fonetik ritmika orqali shakllantirishda "Quvnoq fonetik ritmika" texnologiyasining samarasi//Mug'allim.-Toshkent, 2022. -<sup>3</sup> № 2/1 - 2022 жыл. S – 135-138.

4. O.S. Ishmatova. Eshitishida nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda fonetik ritmika texnologiyasining roli // Maktab va hayot. Toshkent, 2022. 8 (172)/. – С.16-18.

5. Специальная психология Л.М.Муминова Т-2018

6. Алёшина Ю. Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. — 2-е изд. — М. : Независимая фирма «Класс», 2000. — 208 с. — (Библиотека психологии и психотерапии).

7. Белогай К.Н., Морозова И. С., Отт Т. О. Диагностическая и коррекционно-развивающая работа с семьями, воспитывающими ребенка с особыми потребностями: учебно-методическое пособие. Кемерово, 2014

**Электронная литература:**

1. [Психологическая помощь — Википедия \(wikipedia.org\)](https://ru.wikipedia.org/)
2. <http://www.sh1-hoiniki.guo.by/spetsobrazovanie>
3. <https://ortus.by/uslugi/psychological-programs/kak-roditelyam-prinyat-diagnoz-rebyonka>

**СОВРЕМЕННЫЙ ВЗГЛЯД НА ПЕДАГОГИЧЕСКУЮ  
ПРАКТИКУ СТУДЕНТОВ ПО НАПРАВЛЕНИЮ  
СПЕЦИАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИКА**

**Кодирова Феруза Усмановна**

доктор педагогических наук. Профессор.

Заведующая кафедры «Специальной педагогики»

Чирчикского государственного педагогического университета

**Шокаримова Фарангиз**

Студентка 1 курса по направлению

Специальная педагогика (логопедия )

Чирчикского педагогического университета

***АННОТАЦИЯ***

*Современный мир требует от педагогов нового подхода к обучению, особенно в отношении детей с ограниченными возможностями. В настоящее время в Узбекистане существует множество проблем, связанных с обучением и воспитанием детей с ограниченными возможностями. В данной статье мы рассмотрим основные проблемы и пути их решения.*

*UZ: Zamonaviy dunyo o'qituvchilardan, ayniqsa, nogironligi bo'lgan bolalar bilan bog'liq holda ta'lim berishga yangicha yondashishni talab qiladi. Ayni paytda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi va tarbiyasi bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud. Ushbu maqolada asosiy muammolar va ularni hal qilish yo'llarini ko'rib chiqamiz.*

*EN: The modern world requires teachers to take a new approach to teaching, especially in relation to children with disabilities. Currently, in Uzbekistan there are*

*many problems with the education and upbringing of children with disabilities. In this article, we will look at the main problems and ways to solve them.*

***Ключевые слова:***

***РУ:*** Дети с ограниченными возможностями , помощь государства , специализированные школы , студенты , практика , государство , Узбекистан , студенческая практика , логопед , сурдопедагог , специальная педагогика

***UZ:*** Imkoniyati cheklangan bolalar , davlat yordami , ixtisoslashtirilgan maktab , o'quvchi , amaliyot , davlat , O'zbekiston , talabalar amaliyoti , nutq terapevti , kar o'qituvchi , maxsus pedagogika

***EN:*** Children with disabilities , state assistance , specialized schools , students , practice , state , Uzbekistan , student practice , speech therapist , deaf teacher , special pedagogy

В настоящее время педагогическая практика студентов является неотъемлемой частью образовательного процесса в направлении специальной педагогики. Она позволяет будущим специалистам получить практические навыки и опыт работы с детьми с ограниченными возможностями здоровья. Современный взгляд на педагогическую практику студентов в направлении специальной педагогики предполагает индивидуальный подход к каждому ребенку с учетом его особенностей и потребностей. Студенты должны уметь анализировать психологические, физические, социальные и культурные факторы, которые могут повлиять на развитие ребенка. Одним из главных задач педагогической практики является создание благоприятной образовательной среды, которая бы максимально соответствовала потребностям и интересам каждого ребенка. Студенты должны уметь выбирать методы и приемы работы с детьми с ограниченными возможностями здоровья, которые были бы наиболее эффективными и эмоционально комфортными для них. Важным аспектом педагогической практики является учет разных типов ограниченности. Студенты

должны уметь работать с детьми с интеллектуальными, физическими, коммуникативными и эмоциональными нарушениями. Они также должны уметь работать с родителями и другими специалистами в области специальной педагогики. Современный взгляд на педагогическую практику студентов в направлении специальной педагогики также предполагает использование современных технологий и методов обучения. Студенты должны уметь использовать компьютерные программы, интерактивные доски, мультимедийные презентации и другие средства обучения для создания интересной и эффективной образовательной среды. В заключение, педагогическая практика студентов в направлении специальной педагогики играет важную роль в формировании будущих специалистов. Современный взгляд на педагогическую практику предполагает индивидуальный подход к каждому ребенку, использование современных технологий и методов обучения, а также учет разных типов ограниченности.

В Узбекистане существует конституционное право на бесплатное образование. Однако на практике это право не всегда выполняется, особенно в отношении детей с ограниченными возможностями. Часто такие дети не могут получить качественное образование из-за отсутствия специальных учебных заведений и квалифицированных педагогов. (Каждый имеет право на образование. Государство гарантирует получение бесплатно общего образования. Школьное дело находится под надзором государства. (Статья 41 Конституции Республики Узбекистан))

Индивидуальное образование лиц с ограниченными возможностями является важной задачей для педагогов и государства в целом. В Республике Узбекистан в настоящее время существуют меры для обеспечения индивидуального образования таких лиц.

Одной из таких мер является создание специальных школ и центров для детей с ограниченными возможностями, где проводится индивидуальное

обучение. Эти учебные заведения оснащены специальным оборудованием и материалами, которые помогают детям справляться с трудностями.

Кроме того, в Узбекистане существует система ранней диагностики и поддержки детей с ограниченными возможностями. Ранняя диагностика позволяет выявлять проблемы в развитии ребенка на ранних стадиях и начинать лечение или поддержку в максимально ранние сроки.

Также в последнее время в Узбекистане активно внедряются новые технологии и методики обучения, которые помогают детям с ограниченными возможностями. Например, используются компьютерные программы и игры, которые помогают развивать различные навыки у детей.

Несмотря на все усилия, проблемы в обучении детей с ограниченными возможностями все еще существуют в Узбекистане. Некоторые дети не могут получить качественную помощь из-за отсутствия специальных учебных заведений или квалифицированных педагогов. Однако государство продолжает работать над улучшением ситуации в этой области. В целом, индивидуальное образование лиц с ограниченными возможностями является одной из важнейших задач для развития образования в Узбекистане.

На наш взгляд существуют несколько причин, по которым некоторые дети не занимаются или не учатся в специальных учреждениях для детей с ограниченными возможностями.

Рассмотрим основные из них:

1. Недостаточное количество специальных учебных заведений и квалифицированных педагогов. В некоторых регионах не хватает школ и центров для обучения детей с ограниченными возможностями, а также квалифицированных педагогов, способных работать с такими детьми.

2. Финансовые проблемы. Некоторые родители не могут позволить себе оплату обучения в специальных учебных заведениях или получение дополнительных услуг для своих детей с ограниченными возможностями.



3. Негативное отношение общества. Часто дети с ограниченными возможностями сталкиваются с негативным отношением со стороны окружающих. Это может привести к тому, что родители не желают отправлять своих детей в специальные учебные заведения, чтобы избежать социальной изоляции и дискриминации.

4. Неверие в болезнь ребенка. Некоторые родители не признают наличие проблем у своих детей и не видят необходимости в их обучении в специальных учебных заведениях или получении дополнительных услуг.

Решение этих проблем требует совместных усилий государства, общественных организаций и родителей. Необходимо улучшить доступность специальных учебных заведений и квалифицированных педагогов, обеспечить финансовую поддержку для семей с детьми с ограниченными возможностями, а также проводить работу по пропаганде толерантности и воспитанию уважения к людям с ограниченными возможностями.

Идея о том, чтобы студенты специальной педагогики ходили на практику к детям, которые не учатся в специальных образовательных учреждениях, имеет несколько преимуществ.

Во-первых, такая практика позволит студентам понимать, как работать с детьми, у которых есть особые образовательные потребности, но которые не обучаются в специальных учреждениях. Это может помочь им развить свои профессиональные навыки и улучшить качество своей работы в будущем.

Во-вторых, такая практика может помочь детям, которые нуждаются в дополнительной помощи в обучении, но которые не могут получить ее в специальных учреждениях. Студенты специальной педагогики могут помочь им развивать навыки, необходимые для успешного обучения, и помочь им преодолеть препятствия, которые могут возникнуть на пути обучения.

В-третьих, такая практика может помочь улучшить инклюзивную практику в образовании. Это может помочь уменьшить проблемы, связанные с

недостатком доступа к образованию и улучшить качество образования для всех детей.

Однако, такая практика может столкнуться с некоторыми трудностями. Например, студенты могут столкнуться с трудностями в общении с некоторыми детьми, и им может потребоваться дополнительная поддержка и обучение. Кроме того, студенты могут столкнуться с трудностями в организации учебного процесса вне учебных заведений.

В целом, идея о том, чтобы студенты специальной педагогики ходили на практику к детям, которые не учатся в специальных образовательных учреждениях, имеет большие перспективы и может помочь улучшить качество образования для детей с особыми образовательными потребностями. Кроме того, студенты могут помочь семьям детей с ограниченными возможностями, которые часто нуждаются в дополнительной поддержке и помощи. Они могут проводить консультации с родителями, помогать им в решении различных вопросов, связанных с воспитанием и обучением детей, а также оказывать психологическую поддержку.

### **Список литературы:**

1. Брамбринг М. Воспитание слепого ребенка раннего возраста в семье. - М. : Academia, 2003. - 142 с.
2. Выготский Л. С. Основы дефектологии. - СПб. : Лань, 2003. - 654 с
3. Гонеев А. Д. Основы коррекционной педагогики : учеб. пособие для вузов / А. Д. Гонеев, Н. И. Лифинцева, Н. В. Ялпаева ; под ред. В. А. Сластенина. – М. : Academia, 1999. – 280 с. – (Высшее образование).
4. Диагностика и коррекция задержки психического развития у детей : пособие для учителей и специалистов коррекц.-развивающего обучения / авт. С. Г. Шевченко и др. – М. : АРКТИ, 2004. – 224 с.

5. I shmatova, O. (2023). THE EFFECTIVENESS OF USING PHONETIC RHYTHM IN SPEECH DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS. Science and innovation, 2(B5), 232-236.

6. Ishmatova, O. S. (2023). Phonetic rhythmic exercises in working on speech sounds. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(1), 79-85.

7. O.S. Ishmatova. Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning og'zaki nurqini fonetik ritmika orqali shakllantirishda "Quvnoq fonetik ritmika" texnologiyasining samarasi//Mug'allim.-Toshkent, 2022. -<sup>3</sup> № 2/1 - 2022 ЖЫЛ. S – 135-138.

8. O.S. Ishmatova. Eshitishida nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda fonetik ritmika texnologiyasining roli // Maktab va hayot. Toshkent, 2022. 8 (172)/. – C.16-18.

## VAKILLIK MUNOSABATLARINI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Urazov Nurmuxammed Salauatovich**

QDU Stajer oqituvchi

[urazovnurik79@gmail.com](mailto:urazovnurik79@gmail.com)

**Adilbaev Bekbosin Abatbaevich**

QDU Stajer oqituvchi

[bekbosinadilbaev221@gmail.com](mailto:bekbosinadilbaev221@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola mualliflari milliy fuqarolik qonunchiligidagi vakillik institutining hozirgi holatini, vakillik bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni va hujjatlarni yaratish va taqdim etishning huquqiy asoslarini shakllantirishni tizimli va chuqur tahlil qiladilar yoki boshqa shaxslarga tegishli fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat hokimiyati organlari manfaatlarini ko'zlab vakillik funksiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi hujjatlar. Maqolada mualliflar tahlil, sintez, taqqoslash, deduksiya kabi umumiy ilmiy usullardan, shuningdek, bir qator aniq ilmiy usullardan foydalanadilar: nazariy va huquqiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, hujjatlarni tahlil qilish, mantiqiy usul, tizimli tahlil usuli, tarixiy usul, texnik usul.-huquqiy tahlil va boshqalar.*

*Maqolada nafaqat zarur huquqiy hujjatlar, sud amaliyotining qarorlari, balki huquqshunos olimlarning asarlari taqdim etilgan keng nazariy materiallar ham ko'rib chiqiladi. Ushbu maqolaning natijasi O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy bazasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha asosli va aniq muallif takliflari bo'lib, uning maqsadi vakillik va hujjatlar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarning murakkab makonini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'lib, ulardan*

*ba'zilar vakolatlari berilgan boshqa shaxslar tomonidan muhim huquqiy harakatlarni amalga oshirish uchun yuzaga keladi.*

*Bu takliflar muallifning yangiligi bo'lib, nafaqat fuqarolik huquqi nazariyasi va ilmi, balki huquqni qo'llash amaliyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** *huquqshunoslik, huquq, vakillik instituti, fuqarolik huquqi, fuqarolik huquqiy munosabatlari, vakillik, yuridik yordam ko'rsatish, vakillik turlari, ixtiyoriy vakillik, tijorat vakilligi, yuridik vakillik, ishonchnoma.*

## **KIRISH**

Shunday paytlar bo'ladiki, shaxslar o'z huquq va majburiyatlarini bevosita o'zlari amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmay qoladilar. Bunday hollarda ularga fuqarolik huquqidagi vakillik instituti haqidagi tushunchalar yordam beradi. Vakillarning xizmatiga fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham muhtoj bo'ladilar. Shu sababli ishonchnoma, qonun, sud qarori yoki davlat organlarining hujjati asosan vujudga keluvchi vakillik institutining vaziyfasi vakolat beruvchi nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosita vujudga keltirish, o'zgartirish va bekor qilishdan iborat.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida vakillik instituti shaxslarning huquq va burchlarini amalga oshirishlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoyo qilishdagi o'rni quyidagi holatlarda ko'rinadi.

-Jamiyatdagi subyektlarning huquq va majburiyatlarini o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydi;

-shaxslarning o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

-shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishining oldini oladi;

-subyektlar o'rtasida o'zaro huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlash va boshqa vaziyfalarini bajarishi bilan jamiyat taraqqiyotida muhim hisoblanadi.<sup>18</sup>

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR BO'LIMI**

Hozirgi vaqtda fuqarolik protsessida vakillik tushunchasini berish qiyin, chunki normativ darajada bu tushuncha qat'iy emas va ilmiy va o'quv adabiyotlarida u turli

<sup>18</sup> Oqyulov.O Fuqarolik huquq darslik. - T: - 2017: TDYU, 2017. - 125 c.

xil huquqiy hodisalarni o'z ichiga oladi, masalan, vakillik va malakali yuridik yordam

Sh.Sh.Shorahmetovning fikricha, sudda vakillik – manfaatdor shaxs nomidan yoki qonunda nazarda tutilgan barcha asoslar bo'yicha protsessual harakatlarni amalga oshirishdir<sup>19</sup>.

M.I.Mixaylova vakillikni sud va vakil o'rtasidagi vakillik munosabatlarini huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi huquqiy normalar yig'indisi deb belgilaydi<sup>20</sup>.

V.S.Lisnevskiy vakillik - bu vakil va sud o'rtasidagi munosabatlar, bunda vakil o'z vakilining manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi, deb ta'kidlaydi<sup>21</sup>.

Boshqa mualliflarning ta'kidlashicha, fuqarolik huquqiy vakilligi va uning maqsadining huquqiy ta'rifi mavjud va Fuqarolik Kodeksida mavjud bo'lib, unga ko'ra bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakillik qilingan) nomidan bitim tuziladi. ishonchnoma, ko'rsatma qonun yoki publik yuridik shaxsning ma'muriy hujjati asosida vakolat berilgan shaxsning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini bevosita vujudga keltiradi, o'zgartiradi va tugatadi<sup>22</sup>.

Lekin O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida vakil haqida hech narsa aytilmagan. Vakil ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ham, odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarga ham tegishli emas va shuning uchun o'zining protsessual maqomiga ega emas. Ushbu masala bo'yicha ko'plab munozaralar

---

<sup>19</sup> Шораметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2007. – 607 б.

<sup>20</sup> Михайлова М.И. Представительство: понятие, сущность, условия // Актуальные проблемы экономики и права, 2017. – № 12. – С.335-339.

<sup>21</sup> Лисневский В.С. Институт представительства в гражданском процессе Российской Федерации: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Томск: Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2017. – 27 с.

<sup>22</sup> Азаренок Н.В., Давлетов А.А. Представительство в гражданском процессе // Российский судья, 2017. – № 1. – С. 35-39.

mavjud bo‘lib, ular asosida ko‘plab mualliflar vakil ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ishora qiladilar.

## NATIJALAR

Shunday qilib, umumiy yurisdiksiya sudlarida vakillik asosan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 7-bobi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 10-bobi va O‘zbekiston Respublikasining 25-dekabrdagi Qonuni, 10-bobi bilan tartibga solinadi. 1998 yil № 721-I " Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunda protsessual vakillik tushunchasi ko‘rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud emas, shuning uchun qonun chiqaruvchiga 1-moddaga o‘zgartirish kiritishni tavsiya etish tavsiya etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 65-moddasida quyidagi tushunchani o‘z ichiga olgan eslatma kiritilsin: vakillik – vakilning o‘z vakilidan xabardor bo‘lgan uchinchi shaxslarga nisbatan vakilining manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilgan qonuniy harakatidir. vakillik qiluvchining huquq va majburiyatlarini olish yoki amalga oshirishga qaratilgan harakatning xususiyati, ikkinchisi uchun bevosita huquqiy natija.

## MUHOKAMA

Shuni ta’kidlash kerakki, bu masala bo‘yicha ba’zi fikrlar mavjud. Shunday qilib, A.E.Bogdasarova uchta holatda birinchi instantsiya sudida fuqarolik protsessida advokatning majburiy ishtirokini taklif qiladi:

- 1) davlat vakilining (prokurorning) majburiy ishtiroki;
- 2) taraflar yoki uchinchi shaxslar bolalikdan nogiron bo‘lib qolgan fuqarolik ishlari bo‘yicha, urushlar, kambag‘allar;
- 3) voyaga etmaganlarning manfaatlariga daxldor bo‘lgan fuqarolik ishlari bo‘yicha<sup>23</sup>.

---

<sup>23</sup> Багдасарова А.Э. Актуализация правового регулирования представительства в гражданском праве //

Актуальные проблемы российского права, 2017. – № 4. – С. 78-83.

A.E.Bogdasarovning fikriga qo‘shilib, bizdan San’atni to‘ldirish so‘raladi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasi:

“Advokatning sud muhokamasida ishtirok etishi quyidagi hollarda majburiydir:

- 1) davlat vakilining (prokurorning) majburiy ishtiroki;
- 2) taraflar yoki uchinchi shaxslar bolalikdan nogiron bo‘lib qolgan fuqarolik ishlari bo‘yicha, urushlar, kambag‘allar;
- 3) manfaatlarga daxl qilingan fuqarolik ishlarida voyaga etmaganlar.”

### **XULOSA**

Vakillik fuqarolik huquqining uchta mustaqil subyektini birlashtiradi, xususan: vakillik qiluvchi shaxs, uning huquq va majburiyatlari vakil tomonidan amalga oshiriladi; ushbu huquq va majburiyatlarni belgilovchi yoki amalga oshiradigan vakil; va bevosita ular tashkil etilgan yoki amalga oshiriladigan uchinchi shaxs.

Vakillikning asosiy va huquqiy yo‘nalishi shundaki, u bir shaxsning huquqini amalga oshiradi, ya’ni. uchinchi shaxslarga nisbatan huquqiy harakat bir shaxs tomonidan amalga oshiriladi va ular olib keladigan oqibatlar bevosita boshqa shaxsga tushadi.

Shunday qilib, xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, fuqarolik huquqida vakillik - muayyan huquqiy harakatlarni amalga oshirish jarayonida vakillik qilingan shaxsni vakil bilan to‘liq almashtirishdir.



**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Oqyulov. O Fuqarolik huquq darslik. - T: - 2017: TDYU, 2017. - 125 c.

2. Азаренок Н.В., Давлетов А.А. Представительство в гражданском процессе // Российский судья, 2017. – № 1. – С. 35-39.

3. Лисневский В.С. Институт представительства в гражданском процессе Российской Федерации: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Томск: Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2017. – 27 с.

4. Михайлова М.И. Представительство: понятие, сущность, условия // Актуальные проблемы экономики и права, 2017. – № 12. – С.335-339.

5. Шорахметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Дарслик. – Тошкент: Адолат, 2007. – 607 б.

6. Багдасарова А.Э. Актуализация правового регулирования представительства в гражданском праве // Актуальные проблемы российского права, 2017. – № 4. – С. 78-83.

## ANTIK DAVR XORAZM HAYKALTAROSHLIGI

**Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o'g'li**

Ma'mun Universiteti NTM o'qituvchisi,

Email: [sarvarbekmatniyozov@gmail.com](mailto:sarvarbekmatniyozov@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Xorazm hududida qadimgi davrda rivojlangan san'at sohalaridan haykaltaroshlik tahlil qilinadi. Xorazmda mavjud bo'lgan qadimiy yodgorliklar topilmalari, ularning o'ziga xos jihatlari va o'rgangan olimlar haqida ma'lumotlar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Fragment, Gandxar, Anaxita, "Shohlar zali", ossuariy, Sabaziy, relyef, terrakota*

### ANNOTATION

*In this article, sculpture from the fields of art developed in the Khorezm region in ancient times is analyzed. Finds of ancient monuments in Khorezm, their specific aspects and learned scientists are given information.*

**Key words:** *Fragment, Gandhar, Anakhita, "Hall of Kings", ossuary, Sabazi, relief, terracotta*

Qadimgi Xorazmning monumental san'ati - haykaltaroshlik, barelyef va devorga chizilgan rasmlar uning binolari me'moriy bezaklarining ajralmas qismi bo'lgan. Haykaltaroshlik figuralari, odatda, loydan yasalgan va rasmlar ko'pincha mo'rt devorlarda ishlangan. Natijada, ularning san'ati bizga faqat to'liq bo'lmagan qismlarda yetib kelgan. Shu sababli, butun ishni qayta tiklash va uni ichki makonga joylashtirish juda qiyin.

Tuproqqal'a yodgorligida 1947-yildagi qazishmalar vaqtida topilgan monumental haykaltaroshlik qadimgi Xorazm san'atiga tamomila yangi sahifa bo'lib kirdi. Bu skulptura san'ati materiallarining nihoyatda ko'pligi bilan qimmatlidir. To'qqizta xonadan kuydirilmagan loydan yasalgan haykallar qazib olindi. Fragmentlari saqlanib qolgan bu haykallarning umumiy soni 30 dan ortiq bo'lib, shundan ikkitasini butun desa bo'ladi (boshi yo'q), bundan tashqari, to'rtta bosh (bittasida uzun bosh kiyim bor), ikkita bosh kiyim, beshta boshsiz, oyoq-qo'lsiz butun tana, oyog'i o'rnatilgan joydan ko'chmagan 15 tacha haykalning tagi, o'tirgan holatdagi ikkita haykalning pastki qismi hamda tana, qo'l, oyoq, kiyim-bosh va shularga o'xshash narsalarning son sanoqsiz fragmentlari bor edi. Fragmentlar ichida bir chavandoz (asl kattaligida) relyefli tasvirning yirik fragmentini, otning juda bezatilgan ayil bog'langan biqini va chavandoz plashi burmalarini alohida qayd qilib o'tmoq lozim.

Haykallarning aksari o'z kattaligida, ba'zilari kichikroq qilib yasalgan, bir nechtasi esa odam bo'yidan bir yarim-ikki marta baland edi. Haykallar turli ranglarga bo'yalgan: yuzga ayni odam badanining rangi berilgan, kiyim-boshlari esa oq, yashil, pushti, zangori, qizil, qora va boshqa ranglarda. Kiyim-bosh bezaklari (kashta bo'lsa kerak) har xil rangga bo'yalgan. Qora to'riq otning usti juda ajoyib tarzda tasvirlangan. Xorazm rassomlarining yuksak mahorati, san'atining yetukligi va mustaqilligidan dalolat berishi jihatidan olganimizda, hayaltaroshlik san'ati rassomlikdan o'tsa o'tadiki, lekin undan orqada turmaydi. Garchi bu haykaltaroshlik Gandxar hind-budda „Kohin“ badiiy maktabi bilan bog'liq bo'lsa-da, mazkur maktabning ta'sirini ijodiy ravishda o'zgartirib, uni o'z badiiy an'alariga bo'ysundirib borgan. Haykallarning yuzi nihoyatda realistik tarzda ishlangan, ular ishi yuzining aynan o'zginasi bo'lib, mahorat bilan ishlanishi jihatidan so'nggi ellin madaniyatining har qanaqa markazida yaratilgan eng-yaxshi haykaltaroshlik namunalari ham qolishmaydi. Haykallar, kiyim-bosh burmalari va parda taxlarining ishlanishida yuzni tasvirlashdagi xuddi

o'sha yetuk mahorat namoyon bo'lgan<sup>24</sup>. Haykallarning aksariyati «podsholar zali» deb atalgan zaldan topilgan.

Qadimgi Xorazm devorlariga chizilgan rasmlar rivojlangan va o'ziga xos mahalliy maktab mavjudligini namoyish etadi, uning ustalari ellinistik va hind-buddistlik san'ati an'alarini o'zlarining badiiy dunyoqarashi bilan birlashtirdilar.

Xorazm qadimdan haykaltaroshlik taraqqiy etgan hududlardan biri hisoblanadi. Xorazmda mil.avv. IV asrdan – milodiy IV asrgacha terrakotalar – sopol va ganchdan mayda haykalchalar yasash keng taraqqiy etgan. Bu S.P.Tolstovning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Qadimgi haykaltaroshlik diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lib, asosan ayol xudolarning haykalchalari topilgan. Bunda suv va hosildorlik xudosi – Anaxita alohida o'rin tutadi. Keyingi arxeologik tadqiqotlar jarayonida Katqal'a va Xumbuztepadan ham Anaxita haykalchalari topilgan.

Hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanidagi Tuproqqal'a saroyi qadimgi Xorazm mahobatli haykaltaroshligining naqadar taraqqiy etganligini ko'rsatib turibdi. Bundan tashqari Qal'aliqir, Jonbosqal'a, Sulton Uvays bobo yodgorliklaridan mahobatli haykaltaroshlik namunalari topilgan.

Xorazmda haykaltaroshlikning vujudga kelishi haqida turlicha qarashlar mavjud. Akademik A.A.Hakimov yozishicha, qadimgi Xorazm madaniyati sak-massagetlar zaminida shakllanib, qadimiy Eron va qisman yunon ta'sirida uyg'unlashgan, xorazmliklar o'ziga xos xususiyatlardan iborat madaniyatga ega bo'lgan, shuningdek, Xorazm vohasi haykaltaroshlari, rassomlari va naqqoshlari jahon san'ati xazinasiga katta hissa qo'shganlar<sup>25</sup>.

Ko'hna Tuproqqal'a shahri xarobalaridan qadimiy Xorazm hukmdorlari saroyida so'nggi antik davr haykaltaroshlik namunalari topilgan (II asr). U Xolchayondagi hukmdorlar sulolasini ko'klarga ko'tarish bilan bog'liq bo'lib, loydan yasalgan va usti bo'yalgan, biroq bu yerda boshqacha uslub qo'llanilgan. Haykal qoldiqlarining uzuq-

<sup>24</sup> Tolstov S. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T., 1964. 195-b.

<sup>25</sup> Xakimov A. Iskustva Uzbekistana. T., 2010. 279-283--s.

yuluqligi dastlabki tuzumlar tematikasi haqida umumiy tasavvur hosil qilishgagina imkon beradi – ularning orasida havoda muallaq turgan ikkita ma’buda o’rtasida o’tirgan shohning gavdasi, raqqos va raqqosalar bor. Figuralarning ko’pchiligi gorelefli bo’lib, devorlar yuzasida joylashtirilgan. Biroq, “Shohlar zali”dagi Xorazm hukmdorlari va ularning xotinlari jimjimador to’siqli alohida tokchalardan o’rin olgan.

Xorazmdagi ossuariy haykallari o’sha davrga xos kichik plastika yodgorliklari guruhini tashkil qiladi. Ossuariylarning yuqori qismi yoki ularning qopqoqlarida ko’pincha odam figurasi tasvirlangan. Ba’zida bu ossuariy ustida o’tirgan Xorazm ma’budasi tasviri bo’lib, uning figurasi uzun ko’ylakda, keng va chiroyli bo’lmagan yuzi umumlashgan holatda tasvirlangan. Bu hissiyotsiz ma’buda. erkaklar tasviri esa umuman boshqacha. Ularning yuzi hech bir-birini takrorlamagan, yuz shakli, soqolmo’ylovi va bosh kiyimi bilan ajralib turgan. Masalan, Qo’y qirilgan-qal’adan topilgan ossuariy tepasida boshiga uchli shapka va egniga tor chakmon kiygan, chordana qurib o’tirgan ozg’in xorazmlik tasvirlangan. Uning ingichka yuzi shunchalik yagonaki, u portret sifatida qabul qilinmasa ham, har holda boshqalardan ajralib turadi.

Shuningdek, zardushtiylik dini bilan bog’liq ko’plab haykal shaklidagi ostadonlar (suyakdonlar) topilgan bo’lib, hozirda O’zbekiston tarixi davlat muzeyi, I.Savitskiy nomidagi Nukus davlat san’at muzeyida saqlanmoqda.

Qo’yqirilgan qal’ani arxeologik o’rganish natijasida undan juda ko’p qadimgi Xorazm madaniyatining namunalari topilgan. Jumladan, qadimgi xorazmlik erkak kishining yuz qiyofasi real ko’rinishda aks etgan portreti va yirik holda toshdan yasalgan bosh haykalining topilishi katta ahamiyatga ega bo’lgan. Shuningdek, bu yerdan ko’plab bezakli ostadonlar topilgan.

Keyingi yillarda Xorazm Ma’mun akademiyasi va Urganch davlat universiteti olimlari bir qator arxeologik yodgorliklarda arxeologik qazuv va kuzatuv ishlarini olib bordilar. Jumladan, Xorazm Ma’mun akademiyasi arxeologik guruhi t.f.n. S.R.Baratov boshchiligida Hazorasp tumanidagi Xumbuztepa yodgorligida arxeologik tadqiqotlar jarayonida ko’plab tasviriy san’at namunalari, shuningdek bir qator terrakotalar ham

topildi. Bu haykalchalar asosan hayvon shakllaridan iborat bo‘lib, ayrim hollarda xudo va odam tasvirlari ham mavjud.

Topilgan haykalchalardan ma’lum bo‘lgan qadimgi xorazmiy kiyim boshlar Kichik Osiyo qabilalarining kiyimlari bilan juda ko‘p umumiylikka ega, bu qabilalarning kiyimlari esa bizga «frigiya qalpog‘i» va uzun qunjli etiklardan (bular erkak xetlarga xos kiyimdir U.B) tortib xotin-qizlarning kiyim boshlarigacha hammasi xett va qadimgi Eron bo‘rtma naqshkorligi hamda grek san’ati yodgorliklaridan ma’lumdir.

Eng qadimgi haykalchalar yapaloq va shartlidir. Bu haykalchalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda o‘ymakorlik usuli bilan tushirilgan kiyim bezaklari tafsilotiga zo‘r e‘tibor berilgan. Bu uslub ildizlari “devorlari ichida aholi yashaydigan shaharlar“ zamoniga borib taqaladi.

Ayollarning haykalchalarida suv va umuman sug‘orish(xususan, Amudaryo) homiysi hisoblangan ona- ma’buda Ardvisura Anaxita, erkak figuralarda esa ulug‘ ma’budaning hamrohi tangri Sabaziy – Siyovush tasvirlangan, deb taxmin qilish haqiqatga yaqin. Narshaxiyning hikoya qilishicha, zardusht dinidagi Buxoro aholisi har yili Navro‘z bayrami kuni ma’budlarning loydan qilingan haykalchalarini sindirib, ular o‘rniga shaxsan podshoning o‘zi ishtirok etadigan maxsus bozordan boshqa haykalchalar olgan. Aftidan, Xorazmda ham rasm bo‘lgan bu udum (odatda hamma haykalchalar qadimgi zamonlardayoq sindirilar edi) Old Osiyo uchun ahamiyatli bo‘lib, bu joyda yer hosildorligi ma’budning o‘lishi va tirilishi marosimi ma’budning o‘limi va tirilishini anglatgan.

Xorazm qadimdan haykaltaroshlik taraqqiy etgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu yerda haykaltaroshlikning shakllanishi va rivojida dastlabki diniy e‘tiqodlarning ta’siri ham kuchli bo‘lgan.

Qadimgi Xorazmda haykallar mis, bronza va oltindan – quyma, sopoldan terrakota, gipsdan va toshdan yo‘nib ishlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Толстов С. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент, 1964.
2. Абдуллаев Н. Санъат тарихи. 2 Т. – Тошкент, 1987-2001 й.
3. Пугаченкова Г. А., Ремпель Л. И. История искусства Узбекистана с древнейших времен до середины XIX века – Москва: Искусство, 1965.
4. Хакимов А. А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Тошкент: Санъат , 2010.
5. Хакимов А. А. Хорезм в истории государственности Узбекистана \ Особенности развития культуры Хорезма с древности до VIII века. – Тошкент, 2013.

## CHIG‘ATOY ULUSI TARIXIY GEOGRAFIYASI

**Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**

Ma‘mun Universiteti NTM o‘qituvchisi,

Email: [sarvarbekmatniyozov@gmail.com](mailto:sarvarbekmatniyozov@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada mo‘g‘llar bosqinidan so‘ng Movorounnahr va Xurosonda tashkil topgan Chig‘atoy ulusi tarixiy geografiyasiga oid ma‘lumotlar beriladi. Davlat chegaralari, hududi va ularning o‘zgarib borishi, yirik markazlar, ma‘muriy boshqaruvi tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Chingizxon, Rashiddin, bosqoq, dorug‘a, qavchin, barlos, Zanjirsaroy, Nasaf, malik, sadr.*

### ANNOTATION

*This article provides information on the historical geography of the Chigatai tribe, which was formed in Movorunnahr and Khorasan after the Mongol invasion. State borders, territory and their changes, large centers, administrative management are analyzed.*

**Key words:** *Genghis Khan, Rashiddin, Bosgok, Daruga, Kavchin, Barlos, Zanjirsarai, Nasaf, Malik, Sadr.*

Ma‘lumki 1219-1221-yillarda Chingizxon boshchiligida mog‘ullar qo‘shini Xorazmshohlar davlatiga yurish qildi. Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Movarounnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila inqirozga uchradi. Sharqda mashhur shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch (Gurganj), Xo‘jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi.



Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga (Movarounnahr va Xurosonga) nisbatan amalga oshirilgan bosqini haqida bir qator tarixiy manbalarda ma'lumotlar mavjud. Ulardan Ibn al-Asiming «Al-komil fit-tarix» («Mufassal tarixi»), Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankburni» («Sulton Jaloliddin Manguberding hayot tafsiloti»), Atomalik Juvayniyning «Tarixiy jahongushoy» («Jahonni fотиhi tarixi»), Fayzulloh Rashididdin Hamadoniyning «Jome at-tavorix» («Solnomalaming jamlanishi»), Hamidulloh Qazviniyning «Tarixi go'zida» («Saylanma tarix») asarlari ayniqsa katta ahamiyatga ega.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o'z o'g'illariga mulklarini ulus qilib bo'lib berishni boshlagan edi. 1207-yildayoq katta o'g'li Jo'jiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo'lgan yerlar mulk etib berilgan edi. Chingizxon o'limidan oldin boshqa o'g'illariga ham turli zabt etilgan yerlarni ulus qilib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo'lgan yerlar katta o'g'li Jo'jiga, Oltoy tog'larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar ikkinchi o'g'li Chig'atoyga, Xitoy va Mo'g'uliston voris qilib belgilangan uchinchi o'g'il O'gedey(O'qtoy)ga berildi. 1227-yilda Chingizxon vafot etganida, uning imperiyasi Kaspiy dengizidan Manjuriyaga qadar cho'zilgan edi. Bu hudud uning o'g'illari o'rtasida bo'linib, hammasi Buyuk Xon hukmronligi ostida bo'lgan. Rashididdinning ma'lumotiga ko'ra, Chingizxon vafotidan so'ng Chig'atoyga 4000 ta askar tekkan ekan. Ularning boshliqlari o'z navbatida barlos, jaloyir, qavchin va orlot kabi qabilalaridan bo'lgan. Ibn Arabshohning yozishicha, qavchinlar Amudaryo shimoli, Buxoroning Sharqiy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlotlar Afg'oniston shimolida joylashgan. Shu tariqa XIII asr boshlaridayoq Chig'atoy tasarrufiga berilgan Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistonda Chig'atoy ulusi tashkil topdi. Bu davlat XIV asrning 40-yillariga qadar yashaydi. Chig'atoy ulusi yoxud Chig'atoy xonligi – Mo'g'ul imperiyasidan so'ng Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon va uning vorislari hukmronlik qilgan yerlarni o'z ichiga olgan mo'g'ul ulusi. XIII asr oxirlarida xonlik o'zining eng yuqori cho'qqisi chiqqanida Orol dengizining janubida Amudaryodan to hozirgi Mo'g'uliston va Xitoy chegarasidagi Oltoy tog'larigacha

cho‘zilgan. Chig‘atoy ulusidagi mo‘g‘ullar o‘zlarining boshqaruv tarzida asosan ko‘chmanchi bo‘lib qolishgan va XV asr oxirigacha shahar markazlarida o‘rnashishmagan. Chig‘atoy ulusidagi mo‘g‘ullar Movarounnahr va Tarim havzasidagi shahar aholisi ustidan hukmronlik qilganlar.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo‘g‘ullar xizmatida anchadan beri faoliyat ko‘rsatayotgan Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Uning qarorgohi esa Xo‘jand shahrida joylashadi. Uning ixtiyorida mo‘g‘ullarning tayanchi bo‘lgan soliq yig‘uvchi mo‘g‘ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, dorug‘alar – harbiy ma‘murlari bor edi.

Mo‘g‘ul xonlari o‘rtasida oliy hukmdorlik uchun kurashlar buyuk xoqon Guyukxonning (1246-1249) o‘limidan so‘ng avj oladi. 1251-yili hokimiyat tepasiga Botuxon va Berkaxonlarning qol‘lab-quvvatlashlari bilan Tulining to‘ng‘ich o‘g‘li Munqa (Munke)(1251-1259) ulug‘ xon sifatida saylanadi. U dastlab Chig‘atoy ulusini mulk sifatida tugatadi va uni Botuxon bilan bo‘lib oladi. Keyinchalik Munqaning o‘limidan so‘ng Chig‘atoyning nevarasi Olg‘uxon (1261-1266) Oltin O‘rdaga qarshi kurashib, Chig‘atoy ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ladi. Movarounnahr madaniy o‘lkasi bilan yaqin aloqa o‘rnatib, o‘troq hayot kechirishga intilgan Chig‘atoy xonlaridan biri Kebekxon (1309, 1318-1326) bo‘ldi. U butunlay Movarounnahrda ko‘chib kelib, o‘z qarorgohini Nasaf shahri yonida barpo etdi. Keyinchalik bu saroy o‘rnida yangi Qarshi shahri yuzaga keldi. Kebekxon davlatni idora etish, uning ma‘muriy tuzilishini qayta tashkil etish, iqtisodiy hayotni tartibga solish maqsadida ikki xil: ma‘muriy va moliyaviy islohot o‘tkazdi. Ma‘muriy islohotga ko‘ra mahalliy tuzilmalar tumanlarga, viloyatlarga aylantirildi. Mahalliy hokimlar- maliklar, sadrlarning o‘rinlari turkiy-mo‘g‘ul urug‘ boshliqlari qo‘liga o‘tdi. Noiblik esa merosiy bo‘lib qoldi. Bu islohot davlatni birmuncha mustahkamlashda o‘zining ijobiy samarasini berdi. Chig‘atoy xonlarining so‘nggi vakillaridan biri Qozonxon (1343-1346) markaziy xon hokimiyati kuch-qudrati ta‘sirini ko‘tarib, ichki siyosatda Kebekxon yo‘lini tutishga harakat qildi, ko‘chmanchilarga qarshi kurash olib borib,

Qashqadaryo vohasida hatto ularga qarshi tayanch markazi etib Zanjirsaroy qasrini ham barpo etgan edi. Qozag'on boshchiligidagi bir guruh tarafdorlari 1346-yili fitna natijasida Qozonxonni o'ldirishga muvaffaq bo'lishdi. Qozag'on amir unvonini olib, davlat boshqaruvini o'z qo'lga oldi. Movarounnahr Qozag'on davridayoq bir necha yarim mustaqil qismlarga bo'linib ketdi.

Chig'atoy ulusi XIII-XIV asrlarda mavjud bo'lib ravnaq topgan davrda Orol dengizining janubida Amudaryodan to hozirgi Mo'g'uliston va Xitoy chegarasigacha cho'zilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Sagdullayev A.S. O'zbekiston tarixi, I kitob. Toshkent: «Donishmand ziyosi» 2021. - 624 b.
2. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. T.: Noshir, 2010 - 224 b.
3. Ibn al-Asir. Al-komil fit tarix. - Toshkent: "O'zbekiston", 2006.
4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. Т. 1. - М., 1963.
5. Давидович Е.А. Денежное хозяйство Средней Азии после монгольского завоевания и реформа Масудбека (XIII в).-М., 1972.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK ELEMENTLARNI O‘QITISH

**Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna**

### ANNOTATSIYA

*Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sintaktik elementlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot ishini bajarishda pedagogikaning quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi: muammoga doir pedagogik va metodik adabiyotlarni qiyosiy tahlil etish; kuzatuv, sotsiometrik metodlar (anketa, suhbat, so‘rovnoma); tajriba-sinov ishlari o‘tkazish; natijalarni matematik-statistik tahlil etish. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sintaktik elementlarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish uchun tavsiyalar.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich ta‘lim, sintaktik elementlar, bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, ega, metod, dars, ta‘limiy o‘yinlar, ta‘limiy vositalar.*

Boshlang‘ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o‘rganiladiga va nazariy o‘rganiladigan turlarga bo‘linadi. Sintaksis bilimlarni nazariy o‘rganish savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi. Hamda to‘rtinchi sinfdan ham davom etadi. Boshlang‘ich sinflarda “gap”, “Darak gap”, “His-hayajon gap”, “Sodda gap”, “Qo‘shma gap”, “Gap bo‘laklari”, “Gapning uyushiq bo‘laklari”, “Undalma” mavzulari nazariy o‘tiladi. Bu mavzular yuzasidan turli xil mashqlar o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o‘zlashtirilgani uchun tilni o‘rganishda gap ustida ishlash markaziy o‘rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O‘quvchilar ona

tili leksikasi ham gap negizida egallaydilar. Soʻzning leksik maʼnosi va uning qoʻllanish xususiyatlari soʻz birikmasi yoki gapda maʼlum boʻladi. Soʻz gapda bir maʼnoli boʻladi. (gapdan tashqari bir necha maʼno anglatishi mumkin)

Metodist olimi T. G. Ramzayeva boshlangʻich sinflarda gap ustida ishlashni yetarli ravishda beshta yoʻnalishga boʻladi.

1. Gap haqidagigrammatik tushunchalarni shakllantirish (til birligi boʻlgan gapning muhim belgilarini oʻrgatish).
2. Gap strukturasi oʻrgatish (soʻz birikmasida soʻzlarning bogʻlanishi ustida ishlash, gapning Grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarining xususiyatlari, yopiq va yigʻiq gaplar ustida ishlash).
3. Oʻquvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga koʻra turlaridan foydalanish koʻnikmasini shakllantirish.
4. Gapda soʻzlarni aniq qoʻllash koʻnikmasini oʻstirish.
5. Yozma nutqda gapni toʻgʻri tuzib yozish, (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qoʻyish) koʻnikmasini shakllantirish.

“Gap” mavzusi barcha sinflarda oʻrganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. Oʻquvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi- gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali boʻlaklari, gapda soʻzlarning bogʻlanishi, gapning uyushiq boʻlaklarini oʻrganishga oʻtadilar.

Gapning bosh boʻlaklarini kuzatish bilan oʻquvchilar oʻz fikrlarini aniq ifodalashga oʻrganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish koʻnikmasi shakllanadi. Gapni oʻrganish meʼyoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan soʻz birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlangʻich sinflarda oʻrganiladigan sintaktik material kam boʻlsa ham butun oʻquv yili davomida boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga koʻra 1-sinfda oʻquvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikrni bildirishi, gap soʻzlardan tashkil topishi, gapning oxiriga maʼlum tinish belgilari qoʻyilishi haqida amaliy maʼlumotlar beriladi.

2-sinfda esa o'quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning Grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlash yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadi. Ular gapning muhim belgilarini bilib oladilar. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim terminlari kiritiladi.

Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim) ni ajratadilar. Ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z) ni, so'zlarning Grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishini bilib oladilar.

4-sinfda uyushiq bo'laklarni o'rganish bilan gap bo'laklari haqidagi tasavvurni kengaytiradi.

O'quvchilarda gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko'nikmalar qatoriga kiradi. So'z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang'ich sinflarni uning muhim belgilari idrok qilinadi. "So'z birikmasi" atamasi darsliklarga kiritilmagan.

O'quvchilarda gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko'nikmalar qatoriga kiradi. So'z birikmasi gapning bir bo'lagi sifatida ajratiladi. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasining muhim belgilari idrok qilinadi. Boshlang'ich sinflarda "So'z birikmasi" atamasi darsliklarga kiritilmagan. Yuqori sinf 8-sinf darsligida bu tushuncha termin sifatida ishlatiladi. Ammo kichik yoshdagi o'quvchilar so'z birikmasining quyidagi muhim belgilarini bilib olishlari zarur hisoblanadi.

1. So'z birikmasi mazmun va Grammatik tomondan bog'langan ikki so'z. Masalan, Muhammadjon bugun maktabga ukasi bilan keldi. Gapda uchta so'z birikmasi bor: 1) bugun keldi 2) maktabga keldi 3) ukasi bilan keldi

2. So'z birikmasida bir so'z hokim bo'ladi, ikkinchi so'z tobe bo'ladi. Hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi. Tobe so'z shu so'roqqa javob bo'lgan

soʻzdir. Masalan, (qanday) chiroyli qizlar (qayerga) toʻgarakka keldilar. Ega va kesim soʻz birikmasi boʻla olmaydi. Ega va kesim shaxs va sonda moslashib gapni shakllantiradi. Hamda ega va kesim gapning asosini tashkil qiladi.

Gap tarkibida soʻz birikmasini aniqlash uzoq bajariladigain mashqlar davomida shakllantirib boriladi. Buning uchun oʻquvchilar soʻz birikmasida bir soʻz boshqa soʻzga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar ustida koʻproq ishlashlari lozim hisoblanadi.

Shunday qilib, oʻquvchilarda gap boʻlaklari haqidagi tasavvurni oʻstirish gapni oʻzlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlangʻich sinf oʻquvchilari gap boʻlaklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarga) boʻlinishini oʻzlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali boʻlaklar turlarga ajratilmaydi. Gapni oʻzlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarning mohiyati ochiladi: bosh boʻlaklar gapning Grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan gapning Grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali boʻlaklar esa bosh boʻlaklarning aniqlovchilik va toʻldiruvchilik vazifasini bajaradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Oripov K., Obidova M. Ifodali oʻqish. T., «Oʻqituvchi», 1982- yil.
2. Abdullaeva Q. Raxmonbekova S. 2-sinfda. Oʻqish darslari. (Oʻqituvchi kitobi.) Toshkent. Oʻqituvchi, 2004-yil.
3. Abdullaeva Q. va boshqalar. Oʻqish kitobi. 2-sinf Toshkent. Oʻzbekiston, 2003-yil.
4. Gʻafforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. «Alifbe»-(«Savod»); «Ona tili», T., «Oʻqituvchi», 1999- yil.
5. Gʻafforova T. Gʻulomova X. 1-sinfda oʻqish dasrlari (Oʻqituvchi kitobi.) Toshkent. Sharq. 2003 -yil.
6. Shojalilov A. va boshqalar.«Oʻqish kitobi»,«Oʻqituvchi», 2004-yil.
7. Q. Abdullayeva. Birinchi sinfda nutq oʻstirish. - T : 1980.

## DIVIDEND SIYOSATI VA UNGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR XAVFINI KAMAYTIRISH

**Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi**

TDIU, moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti talabasi

[x.shamsitdinova@tsue.uz](mailto:x.shamsitdinova@tsue.uz)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati va unga ijobiy hamda salbiy ta'sir etuvchi omilllar guruhleri o'rganilgan va olib borilayotgan dividend siyosati tahlil qilingan. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida dividend to'lash bo'yicha bir qancha dolzarb muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va xulosalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** aksiyadorlik jamiyati, likvidlilik, shartnoma shartlari, dividend siyosati, qimmatli qog'ozlar, taqsimlanmagan foyda.*

Dividend siyosati kompaniyaning aksiyadorlarga dividendlar to'lashi kerak bo'lgan foydani qo'llash sohasidagi siyosati bo'lib, u daromadni to'liq to'lash yoki undan keyinchalik daromad olish maqsadida daromadni qayta investitsiyalash bilan bog'liq bo'lgan harakatlari majmuidir. O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosatiga muvofiq, dividendlarni to'lashni va ularning manbasini belgilovchi tartib mamlakat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Dividendlarni to'lash manbai bo'lib o'tgan davr uchun aksiyadorlik jamiyatining sof foydasi hisoblanadi. Agar kompaniyalar sof (taqsimlanmagan) foyda bo'lmasa, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydadan ushbu maqsad uchun maxsus yaratilgan zaxira mablag'laridan to'lanadi<sup>26</sup>.

---

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, 2014.



Ko'p hollarda kompaniyalar tomonidan tanlangan dividend siyosatini ishlab chiqishga quyidagi omillar guruhlarini ta'sir qiladi<sup>27</sup>:

1. Huquqiy omillar. O'zbekiston Respublikasida dividendlarni to'lash Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi qonun va boshqa qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi, unga muvofiq dividendlar to'lash manbalari aniqlanadi, aksiyadorlik jamiyatlarida dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli bo'lmagan holatlar, dividendlarni to'lash tartibi hamda muddatlari va boshqalar to'g'risida qarorlar qabul qilinadi.

2. Shartnoma shartlari. Xorij tajribasidan ma'lumki, uzoq muddatli kreditlar beradigan banklar kredit shartnomalarida kompaniyalar faoliyatida qayta investitsiyalanadigan foyda ulushi bilan bog'liq bo'lgan cheklovlar miqdorini belgilashni nazarda tutadi. Bank o'z qarz oluvchisining samarali faoliyatidan manfaatdor, bu esa o'z navbatida olingan kredit summasining o'z vaqtida qaytarilishi imkoniyatini yaratadi.

3. Likvidlik. Mahsulot realizatsiyasi vaqtida pul to'lovlari har doim ham amalga oshirilavermaydi, buning o'z sabablari mavjud. Aksiyadorlik jamiyatining faoliyati foyda bilan yakunlangan bo'lishi mumkin, lekin dividendlar to'lash uchun hisob yetarli mablag'lar bo'lmasligi holatlari ham uchrab turadi. Shuning uchun, qonunchilikka ko'ra, dividendlar nafaqat pul bilan, balki aksiyadorlik jamiyati nizomida nazarda tutilgan hollarda pul bo'lmagan shaklda, ya'ni boshqa mol-mulk bilan ham to'lanishi mumkin.

4. Ishlab chiqarishni kengaytirish. Rivojlanayotgan kompaniyalar faoliyatidagi xom – ashyo va resurslarga bo'lgan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun moliyaviy mablag'larning yetishmasligi muammosiga duch kelmoqda. Bunday sharoitda

---

<sup>27</sup> A.A.Temirov. Dividendlar va dividend siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi», 2021 – 288 b. 48-b.

aksiyadorlar qarz olish yoki qo‘shimcha aksiyalarni chiqarishga yo‘l qo‘ymaslik uchun dividendlarni to‘lash cheklovlariga o‘tish siyosatni amalga oshirishlari mumkin.

5. Kapitalning “ajralish” muammosi. Agar aksiyadorlik jamiyati yuqori dividendlar to‘laydigan bo‘lsa, moliyalashtirish manbalari bilan ta‘minlash uchun shubhasiz, tashqi moliyalashtirish manbalariga yoki qo‘shimcha aksiyalar chiqarishga murojaat qilish kerak bo‘ladi. Bunday harakatlar yangi aksiyadorlarning paydo bo‘lishiga va mavjud bo‘lgan mulk huquqining “buzilishi” (manfaatlar to‘qnashuvi)ga olib kelishi mumkin. Dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi ma‘lumotlar nafaqat aksiyadorlar tomonidan, balki qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari va maxsus axborot agentliklari tomonidan ham kuzatilib boriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Korporatsiya kengashi tomonidan qabul qilingan dividend siyosati, korporatsiya faoliyatining o‘ziga xosligini va aksiyadorlarning talablari bilan mos kelishi kerak. Korporatsiya moliyaviy holati, katta investitsiyalar va boshqa moliyaviy omillar dividend siyosatiga ta‘sir qilishi mumkin. Moliyaviy holatlar yaxshi bo‘lsa, korporatsiya ko‘proq dividend to‘lashga qodir bo‘ladi. Aksiyadorlar manfaatlari. Aksiyadorlar yig‘ilishi yoki boshqaruv kengashi tomonidan to‘lanadigan dividendlar miqdori to‘g‘risida qaror qabul qilishda kompaniyaning bozor qiymatiga qanday ta‘sir qilishini hisobga olishi kerak. Qayta investitsiyalashga yo‘naltirilgan foyda kelajakdagi dividendlarning kafolati bo‘lib hisoblanadi, shuning uchun ham dividendlar o‘sishi darajasi uning qiymatiga bog‘liq bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.A.Temirov. Dividendlar va dividend siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 288 b. 48-b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni, 2014.

3. Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

## THE PHENOMENON OF REDUPLICATION IN ENGLISH AND KARAKALPAK: A CROSS-LINGUISTIC STUDY

**Kdirbaeva Bakhitgul Keunimjaevna**

PhD Student, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

kdirbaevab@gmail.com

### **ABSTRACT**

*Reduplication is a linguistic phenomenon that involves the repetition of all or part of a word to create a new form. It is a pervasive phenomenon across human languages, and it has long been an area of significant linguistic interest. This article explores the reduplication in English and Karakalpak. It focuses on the types of reduplication, their semantic features, and the similarities and differences between the two languages. The introduction provides an overview of the topic, followed by a literature review of reduplication in English and Karakalpak, including the types of reduplication and their semantic features. The discussion section compares and contrasts the two languages, highlighting similarities and differences in their use of reduplication. The article concludes with a summary of the findings and their implications for future research. Overall, this article contributes to our understanding of reduplication as a linguistic phenomenon and sheds light on its use in two distinct languages.*

**Keywords:** *Karakalpak reduplication, English reduplication, Cross-linguistic study, Types of reduplication, Semantics*

Reduplication is a common occurrence in all languages and can impact various linguistic units. This phenomenon has been studied in different fields of linguistic and social science, leading to various approaches to understanding it. According to Sapir, reduplication is “repetition of all or part of the radical element.” [6]. Consequently, Carl Rubino describes reduplication as “the repetition of phonological material within

a word for semantic or grammatical purposes” [5]. Moravcsik defines reduplication as “a pattern where the double or multiple occurrence of a sound string, syllable, morpheme, or word within a larger syntagmatic unit is in systematic contrast with its single occurrence, with the iterated elements filling functionally non-distinct positions” [4]. Nowadays, reduplication is a widely used morphological device in human languages. To fully comprehend the structure and evolution of reduplication, a cross-linguistic approach is both necessary and feasible.

Reduplication can be total or partial. In her linguistic work concerning reduplicative constructions, Moravcsik notes for the subdivision of reiteration:

“Reiteration may be either total or partial: it is total if it involves the repetition of the whole semantic-syntactic or of the whole phonetic-phonological string whose meaning is correspondingly changed; and it is partial if involves the reiteration of only part of the semantic-syntactic or phonetic-phonological constituent whose meaning is accordingly modified.” [4].

She also claims that “partial reduplicative constructions” can be further categorized into different subtypes based on how the specific part “to be reduplicated is defined”. Here are some examples of total (1) and partial (2) reduplications in English:

(1) *bye-bye*

*goody-goody*

*no-no*

*night-night*

*zero-zero*

(2) *rip-rap*

*ping-pong*

*crinkle-crinkle*

*happy-clappy*

*namby-pamby*

In their study titled "Contrastive Focus Reduplication in English (The Salad-Salad Paper)", Jila Ghomeshi et al. observe that there exist at least six other types with varying degrees of productivity:

- a. 'Baby-talk' reduplication, e.g., *choo-choo, night-night, din-din, bow-wow, wee-wee*.
- a. Multiple partial reduplications, e.g., *hap-hap-happy* (as in song lyrics)
- c. Deprecative reduplication, e.g., *table-shmable, hocus-pocus, mumbo jumbo, fuddy-duddy, wishy-washy, dilly-dally, flim-flam, riff-raff, harum-scarum*.
- d. 'Rhyme combinations': *super-duper, willy-nilly, pall-mall, hanky-panky, itsy-bitsy, fiddle-faddle, hoity-toity, lovey-dovey, okey-dokey, walkie-talkie, keepie-uppie*.
- e. 'Ablaut combinations': *ding-dong, flim-flam, hip-hop, jibber-jabber, kit-kat, mish-mash, ping-pong, riff-raff, sing-song, tick-tock, zig-zag*.
- f. Intensive reduplication: *You are sick sick sick!*

Ghomeshi et al. introduce another category of reduplication called contrastive reduplication. This involves the repetition of words or phrases, such as "It's tuna salad, not SALAD-salad" or "Do you LIKE-HIM-like him?" [3].

Reduplication is a morphological process in which a word or part of it is repeated exactly or with slight changes. In English, reduplication is not grammatically productive, meaning it is not used to create new forms of words. However, it is a common feature in many languages around the world. The semantic aspects of reduplication in English include diminution(3), repetition(4), intensity(5), baby register, scattering, contempt, lack of control, lack of specificity, and continuity(6) [1]. According to Sapir, reduplications "indicate such concepts as distribution, plurality, repetition, customary activity, increase of size, added intensity, continuance" [6].

(3) *teeny-weeny*

*teensy-weensy*

*itsy-bitsy*

*itty-bitty*

(4) *boogie-woogie*

*ping-pong*

*ding-dong*

*splish-splash*

(5) *super-duper*

*tip-top*

(6) *dilly-dally*

*pitter-patter*

In most cases, reduplication is used to create new words with a different meaning from the original word. For example, in English, "chitchat" means "small talk," while "chat" means "talk." In this case, the reduplication changes the meaning of the word.

Reduplication is a common phenomenon in the Karakalpak language [8]. Bekbergenov states that reduplicative words are similar to pair words by their forms as they both consist of two paired components [2]. These are examples of reduplicative words (7) and pair words (8) and given below. They show that both entities exhibit a fundamental duality characterized by the presence of two components that are paired together.

(7) *taw-taw* ‘mountains, heap’

*adam-madam* ‘people’

*at-mat* ‘horses’

*qalın-malın* ‘dowry’

*kiyiz-piyiz* ‘felt, a certain amount of felt, something like felt’

(8) *ata-ana* ‘parents’

*keli-kelsap* ‘mortar’

*kóz-qulaq* ‘all eyes and ears, very attentive’

*dúnya-mal* ‘wealth, fortune’

However, Bekbergenov says that reduplicative words differ significantly from pair words semantically and structurally. He also enumerates several distinctive characteristics of reduplicative words in order to differentiate them from pair words. Firstly, pair words are formed from two different bases, while reduplicative words are

formed by repeating one word. Secondly, a noteworthy contrast between pair words and reduplicative words is that while the second component of some pair words lacks semantic significance, the second component of reduplicative words always bears meaning due to its repetition of the first component. Another characteristic that distinguishes pair words from reduplicative words is that while the former generally consists of two components (with few exceptions such as “*ashna-yar-dos* ‘acquaintances, spouse and friends’, *hayal-bala-shağa* ‘family; wife and children’, *gälle-bas-sıraq* ‘beef’, *bir-eki-úsh* ‘one two three’, *ayt-toy-mereke* ‘celebrations’”), the latter typically comprises three or more components, particularly in the case of onomatopoeic words and interjection, as in (9). The author also discusses the semantic and syntactic attributes as well as the etymology of both types of words [2].

(9) *pay-pay-pay-pay* ‘expression of surprise, delight’

In scholarly research concerning reduplicative words, Nazhimov delineates two primary types of reduplicative words in Karakalpak: full and partial [10]. Full reduplication is the repetition of an entire word, stem, or root, while partial reduplication involves the repetition of only part of the word. The following examples illustrate instances of full reduplication (10) and partial reduplication (11).

(10) *oyın-oyın* ‘games, toys’

*tóbe-tóbe* ‘mountains, hills’

*pada-pada* ‘herds’

*kúnde-kúnde* ‘everyday’

*qızıq-qızıq* ‘very interesting’

*mayda-mayda* ‘small, little, tiny’

(11) *ash-ashlıq* ‘hunger’

*ústi-ústine* ‘top by top’

*kózbe-kóz* ‘face to face’

*úyme-úy* ‘to all houses’

Alternatively, Bekbergenov subdivides reduplicative words into four general categories: identical, non-identical, rhymed, and intensive [2].

"Identical reduplicative words" are words that are created through reduplication, involving the exact duplication of the base word without any alteration. These types of words are commonly utilized to place emphasis on certain attributes such as plurality and continuity. Some examples of identical reduplicative words in Karakalpak are *qalta-qalta* 'sacks', *júz-júz* 'hundreds', *tartınıp-tartınıp* 'be shy continuously', *bara-bara* 'day by day, from time to time', *sulıw-sulıw* 'very beautiful', *ayta-ayta* 'repeating'.

Non-identical reduplicative words are formed through the reduplication of a word in which the two components comprising the word differ morphologically. During the process of this reduplication, it is possible that either one or both of the components may exhibit differences in their morphological structure when compared to the original base word. Below are examples of non-identical reduplicative words (12).

- (12) *ashtan-ash* 'starving'  
*qaraptan-qarap* 'out of the blue'  
*orınlı-ornına* 'in order'  
*bolar-bolmas* 'out of the blue'

Reduplicative words that bear connotations of abandonment are formed by the repetition of a word with a change or insertion of the initial consonant in the second component, thereby resulting in a unique, reduplicated word. Typically, the initial consonant of the second component is either labial "m," "b," or "p" or anterior "s" [9]. Some examples of these reduplications in Karakalpak *palaw-salaw* 'treats, food, meals', *agash-pagash* 'thickets of trees, wood', *nan-pan* 'bread', *kitap-sitap* 'books', *egin-pegin* 'crops', *qoy-poy* 'sheep'.

C-type reduplications are moderately numerous and very uniform in Karakalpak [7]. "Intensive reduplicative words" are comprised of words that primarily serve to form the intensive degree of adjectives and some adverbs [2]. In other words, the intensive degree of adjectives or adverbs is formed by reduplication (repetition) of the adjectives. This reduplication process can be full or partial, with the first of the repeated words truncated to a single syllable and closed by a consonant. Usually, this consonant



is a bilabial voiceless "p", while on some occasions it may be a nasal "m" or a "whistling s." There are some turkologists who believe that the first element in reduplicated adjectives, such as the word *qıp-qızıl* 'red', may represent the formation of a prefix. However, it should be noted that these first elements are common to all adjectives and cannot be viewed as prefixes since a distinct prefix is formed for each adjective in correspondence to the initial consonant of the second component [9]. Some examples of intensive reduplications in Karakalpak *up-uzın* 'very long', *qap-qara* 'black', *qıp-qızıl* 'red', *úp-úlken* 'huge, massive, very big', *sup-sultw* 'very beautiful', *map-mayda* 'tiny'.

There are both similarities and differences in the use of reduplication in English and Karakalpak. Both languages use reduplication as a word formation process. In English and Karakalpak there are examples of partial reduplication, where only part of the word is repeated. Reduplication in English are used for emphasis or intensification as in Karakalpak. However, there are some differences. Firstly, English has a wider range of reduplication types than Karakalpak. Secondly, Karakalpak has less examples of reduplication for rhyming or alliterative effect than English. Thirdly, Karakalpak language has more examples of reduplication for pluralization than English. Lastly, the phonology, morphology, syntax, and semantics of reduplication differ between English and Karakalpak. Overall, while there are some similarities in the use of reduplication in English and Karakalpak, there are also significant differences in the types and functions of reduplication in each language.

## References

1. Al-Asbahi, K. M. M. (2020). *Insights into the Semantics of Reduplication in English and Arabic*. International Journal of English Linguistics, 10(1).
2. Bekbergenov A. (1979). *Qaraqalpaq tilindegi tiykarǵı sóz jasaw usılları*. Nókis: "Qaraqalpaqstan" baspası.

3. Ghomeshi, Jila & Jackendoff, Ray & Rosen, Nicole & Russell, Kevin. (2004). *Contrastive Focus Reduplication in English (The Salad-Salad Paper)*. *Natural Language and Linguistic Theory*. 22. 307-357.
4. Moravcsik, Edith. (1978). *Reduplicative constructions*. In Joseph Greenberg (ed.), *Universals of human language*. Stanford: Stanford University Press, 297–334
5. Rubino, Carl. (2005). *Reduplication: Form, function and distribution*. In *Grammar, Comparative and general-Reduplication*, Bernhard Hurch (ed.), 11–29. Berlin/New York: Mouton de Gruyter.
6. Sapir, Edward. (1921). *Language: An Introduction to the Study of Speech*. New York: Harcourt, Brace and Company.
7. Stachowski Kamil. (2013). *Turkic C- type reduplications*. Praca doktorska. Katowice: Uniwersytet Śląski
8. Wurm, S. (1951). The Karakalpak Language. *Anthropos*, 46(3/4), 487–610. <http://www.jstor.org/stable/40449486>
9. Баскаков Н. А. (1952). *Каракалпакский язык. Т. 2: Фонетика и морфология. Ч. 1. Части речи и словообразование*. М.
10. Нажимов А. (1971). *Способы образования парных и парно-повторных слов в каракалпакском языке*. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. Нукус.

**ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚ ИҚЛИМ ШАРОИТЛАРИДА БАҲОРГИ  
ЮМШОҚ БУҒДОЙНИНГ ДАЛА УНУВЧАНЛИГИГА  
МИНЕРАЛЛАШГАН ЕР ОСТИ СУВЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ**

к/х.ф.д., профессор **Ойбек Анварович Аманов**,  
Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти директори

**Абдирасул Абдиҳакимович Жўраев**,  
Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти таянч докторант  
[jurayevrasulbek18@gmail.com](mailto:jurayevrasulbek18@gmail.com)

к/х.ф.ф.д., **Фарход Дониёрович Мамадиёров**  
Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти, «Алмашлаб экиш ва  
тупроққа ишлов бериш» лабараторияси мудир.  
[farkhod.mamadiyov@gmail.com](mailto:farkhod.mamadiyov@gmail.com)

**Ибодулла Нурматов**  
Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти, кичик илмий ҳодими.  
[farkhod.mamadiyov@gmail.com](mailto:farkhod.mamadiyov@gmail.com)

***АННОТАЦИЯ***

*Ушбу мақолада Қашқадарё вилоятининг Қарши туманидаги шўрланган оч тусли бўз тупроқлар шароитида баҳорги юмшоқ бугдой навларининг дала унувчанлигига уруғларни ундириб олиш учун суғориш тадбирларини олиб боришда фойдаланилган минералланиш даражаси юқори бўлган ер ости сувларининг таъсири ёритилган.*

*Калит сўзлар:* Қуруқ қолдиқ, шўрланиш, сувнинг қаттиқлиги, анион, катион, ер ости суви, гипертоник эритма, баҳорги юмшоқ бугдой, тупроқ, уруғ.

### ABSTRACT

*In this article, the influence of groundwater with a high mineralization level, used for irrigation to collect seeds, on the field fertility of spring soft wheat varieties in the conditions of saline light gray soils in Karshi district of Kashkadarya region is highlighted.*

**Key words:** *Dry residue, salinity, water hardness, anion, cation, groundwater, hypertonic solution, spring wheat, soil, seed.*

### КИРИШ

**Мавзунинг долзарблиги.** Сўнги йилларда Ўзбекистон томонидан фойдаланиладиган сув ресурсларининг йиллик ҳажми ўрта ҳисобда 51-53 км<sup>3</sup> ни ташкил этади ва бу умумий олинган сув ҳажмининг жиддий тарзда қисқарганини кўрсатади (20 фоиз). Бу эса, иқлим ўзгариши, умумий қурғоқчилик сабабли бизда сув ресурслари камайиб борапти шундоқ ҳам. Иқлим ўзгариши туфайли 15 фоиз сувни йўқотяпмиз. Қолаверса, трансчегаравий сувдан фойдаланиш муаммолари туфайли дарё сувларининг камайиб кетганлиги билан боғлиқ бўлиб, сув омборларини тўлдиришимиз қийин бўлмоқда.

Шунингдек, Республикада сув тақчиллиги, қурғоқчилик ва чўлланиш каби муаммолар билан курашаётган бир вақтда пайдо бўлган жиддий муаммо, бу – Афғонистон ҳукумати томонидан 2022 йил 31 март куни эълон қилинган мамлакат шимолидаги йирик “Қўштепа” канал қурилиши лойиҳаси (684 млн долларлик) амалга оширилди.

Қўштепа канали (Афғонистоннинг Балх вилояти ҳудудида 108 км – биринчи босқич яқунланган) сув кам йилларда суви 34 куб километргача пасайиб кетадиган Амударёнинг деярли 10 куб километр, яъни учдан бир (10-15%) қисм суви Афғонистоннинг қишлоқ хўжалигида мўлжалланган майдонларга фойдаланилади. Бу эса Хоразм, Бухоро, Сурхондарё ва Навоий вилоятлари ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси учун жиддий оқибатларга олиб келади[6.].

Аммо, Республикамизнинг назарда тутилмаган ҳудудларида ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Жумладан, Қашқадарё вилоятининг чўл ҳудудларидаги айрим туманларда қишлоқ хўжалиги учун фойдаланиладиган майдонларни мавсум давомида суғоришга мўлжалланган сув миқдори ҳар йилгига нисбатан 40% камайиши кузатилган.

Шу сабабли, ҳар бир минтақаларнинг тупроқ-иклим шароитларидан келиб чиқиб, қишлоқ хўжалигида етиштирилаётган экинларни сувга бўлган талабини қондириш зарур бўлади. Ушбу талабни қондиришда барча сув ҳавзалардаги сувдан оқилона фойдаланиш лозим.

**Тадқиқотнинг амалий аҳамияти.** Тарихий манбаларда аجدодларимиз томонидан ер ости сувларидан фойдаланиб, суғориш тадбирларининг илк усуллари асос солинган. VII асрда Қашқадарёнинг ўнг томонидаги Ерқўрғон ва Шуллактепа (Ҳозирги Қарши шаҳри) шаҳристони атрофида асосан лалми деҳқончиликка ихтисослашган бўлиб, деҳқончиликда кудуқ (ер ости) сувларидан фойдаланишган[3.].

Биз бугунги кунда сув тақчиллигини бартараф этиш мақсадида, қишлоқ хўжалигида маҳсулот етиштириш давомида ер ости сувларидан фойдаланиш борасида тадқиқот олиб бориш лозим бўлади.

Шу боис, Республикамизнинг жанубий минтақаси Қашқадарё вилоятининг кучсиз шўрланган оч тусли бўз тупроқлар шароитида баҳорги юмшоқ буғдойнинг «Наврўз», «Парвоз» ва «Жануб гавҳари» каби янги навларини етиштиришда ер ости сувларидан фойдаланиб суғоришнинг дала унувчанлигига таъсирини ўрганишдан борасида тадқиқот олиб бордик.

**Тадқиқот объекти ва усуллари.** Тадқиқот иши Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти марказий тажриба участкасида олиб борилди. Тадқиқотларда баҳорги буғдойнинг «Наврўз», «Парвоз» ва «Жануб гавҳари» каби янги навлари феврал ойларида 3,0 4,0 млн.дона/га унувчан уруғ ҳисобида экилди.

Тупроқ таркиби ва суғориш манбаси сифатида фойдаланилган ер ости сувларининг кимёвий таҳлиллари Е.В Аринушкинанинг «Руководство по химическому анализу почв» қўлланмаси асосида амалга оширилди[1.].

Фенологик кузатиш, ҳисоб ва таҳлиллар Умумиттифоқ Ўсимликшунослик институти услуги ва дала тажрибаларни ўтказиш услублар бўйича олиб борилди.

Барча фенологик кузатувлар тажрибанинг I-III такрорланишларнинг барча вариантларида 1 м<sup>2</sup> ҳажмда белгиланган 3 нуқтада олиб борилди. Баҳорги буғдойда фенологик кузатувларни олиб борилди [5.].

## НАТИЖА

Тажриба майдони суғориладиган оч тусли бўз тупроқларининг шўрланиш даражаси ва типини билиш мақсадида улардаги сувда эрувчан тузлар миқдори аниқланди.

Олинган натижаларга кўра, тупроқ қатламида куруқ қолдиқ миқдори 0,325-0,334%, Cl<sup>-</sup> 0,031-0,044%, SO<sub>4</sub><sup>-</sup> 0,117-0,126%, Ca<sup>++</sup> 0,022-0,028% ва Mg<sup>++</sup> 0,015-0,019% оралиғида бўлганлиги аниқланди. Сувда эрувчан тузлар ичида сульфат ва кальций ионлари нисбатан кўпроқ учрайди. Умуман олганда суғориладиган оч тусли бўз тупроқларнинг сувли сўрим таркибидаги куруқ қолдиқ ва ионларнинг (Cl<sup>-</sup>, SO<sub>4</sub><sup>-</sup>) миқдори паст даражада бўлганлиги боис, ушбу тупроқларни кучсиз шўрланганлигидан далолат беради (1-жадвал).

### 1-жадвал

**Суғориладиган оч тусли бўз тупроқларда сувда эрувчи тузлар миқдори**

(Жанубий деҳқончилик ИТИ тажриба майдони, 2016 й.)

Қатлам, см	Куруқ қолдиқ, %	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	Cl <sup>-</sup>	SO <sub>4</sub> <sup>-</sup>	Ca <sup>++</sup>	Mg <sup>++</sup>	Шўрланиш даржаси
0-24	0,325	0,072	0,031	0,126	0,028	0,015	Кам шўрланган
		1,18	0,87	2,62	1,4	1,23	
25-42	0,327	0,074	0,035	0,122	0,026	0,016	Кам шўрланган
		1,21	0,99	2,54	1,3	1,32	
43-74	0,328	0,073	0,042	0,119	0,031	0,018	Кам шўрланган
		1,2	1,18	2,48	1,55	1,48	
75-112	0,334	0,074	0,044	0,117	0,022	0,019	Кам шўрланган
		1,21	1,24	2,43	1,1	1,56	

Суғориш манбаси сифатида фойдаланилган ер ости сувларининг кимёвий таҳлилига кўра, куруқ қолдиқ рухсат этилган меъёрдан жуда кўп эканлиги аниқланди (7789 мл/л). рН 7,3 ва хлор иони рухсат этилган меъёрдан 1,3 барабор паст эканлиги аниқланди (2-жадвал). Сувнинг қаттиқлиги 24,7 мл экв/л бўлиб, рухсат этилган меъёрдан 2,53 баробар юқори эканлиги аниқланди. Бунга мос равишда кальций ва магний миқдори юқори бўлиб, тегишлича, 400,8; 121,1 мл/л ташкил этиши аниқланди.

## 2-жадвал.

### Ер ости сувларининг кимёвий таҳлили

№	Намуна таркиби	Рухсат этилган меъёр	Намунадаги миқдори
1	Куруқ қолдиқ	1-3 мл/л	7789 мл/л
2	рН	6,5-8,5	7,3
3	Сувнинг қаттиқлиги	7 мл экв/л	24,7 мл экв/л
4	Магний	40 мл/л	121,1 мл/л
5	Кальций	180 мл/л	400,8 мл/л
6	Хлор	300-350 мл/л	133,0 мл/л

Феврал ойида 3 млн.дона/га меъёрида экилган баҳорги буғдой навларини ундириб олиш учун ер ости суви билан суғориш тадбирлари олиб борилди. Суғоришдан сўнг баҳорги буғдойнинг «Жануб Гавҳари» 9-10 кунда, «Парвоз» ва «Наврўз» навлари 11 кунда униб чиқиши кузатилди. Аммо, униб чиққан кўчатлар сони ҳисобланганда, «Жануб Гавҳари» нави 123 млн.дона/га ёки 41%, «Парвоз» ва «Наврўз» навлари 107 ва 112 млн.дона/га униб чиқан ёки дала унувчанлиги тегишлича, 35,7; 37,3% бўлганлиги аниқланган.

## МУҲОКАМА

Олиб борилган тадқиқотларда уруғларнинг дала унувчанлигига тупроқнинг агрофизик хоссалари таъсир этади. Айниқса, тупроқ зичлигини ортиши дала унувчанлигини пасайтиради. Аксинча, дала унувчанлигини оширади[2.]. Бундан

ташқари уруғларнинг дала унувчанлиги экиш чуқурлигига ҳам боғлиқ. Чунки, тупроқ агрегатлари сувга чидамсиз бўлган шароитда уруғларни экиш чуқурлиги одатдагидан юзароқ экилганда дала унувчанлик юқори бўлади[4.].

Биз юқорида уруғларнинг дала унувчанлигига иккита омил таъсирини таҳлил қилдик. Аммо, тадқиқот олиб борилган тупроқ иқлим шароитларида тупроқнинг агрономик хусусиятлари ўрганилиб, экиш тадбирлари амалга оширилган. Шунингдек, уруғларнинг унувчанлигига тупроқ таркибидаги тузлар миқдори ва ер ости сувларининг юқори даражада минераллашганлиги салбий таъсир қилган. Бунда, суғоришдан кейин тупроқ эритмасида катион ва анионлар миқдори юқори бўлиши унинг гипертоник эритма сифатида униш жараёнида уруғларни сувсизлантиради. Натижада аксарият уруғлар узининг вазнига нисбатан талаб этиладиган сувни бириктира олмай нобуд бўлади.

## **ХУЛОСА.**

Қашқадарё вилоятида тарқалган кучсиз шўрланган оч тусли бўз тупроқлари шароитида баҳорги юмшоқ буғдой навларини дала унувчанлигини яхшилашда экишдан олдин органик ўғитлар қўллаш ҳамда ер ости сувларнинг уруғларга таъсирини камайтирувчи тадбирларини ишлаб чиқиш керак бўлар экан.

## **АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. Аринушкина. Е.В. *Руководство по химическому анализу почв.* М. МГУ.1970. – 488 с.
2. Мамадиёров Ф., Рўзмонов А., Аннаева Н. *Алмашлар экиш тизимида ўсимликлар уруғининг дала унувчанлигига тупроқ зичлигининг таъсири.* SCHOLAR scientific journal.(ISSN 2181-4147). Vol.1. No.1(13) (2023): P-107-113.
3. Ртвеладзе Э., Сулаймонов Р., Буряков Ю., Саъдуллаев А., Мавлонов Ў., Хасанов А., Юсупова М., Ражабов Қ., Гюль Э., Саидов А., Эркаев А., Жўрақулов О., Қодиров М., Жумаев А., Омельченко А., Уватов У., Ражабова Н. (2010). *Қарши 2700.* Маънавият.



4. Рўзмонов А., Мамадиёров Ф. *Такрорий экин сифатида экилган кунгабоқарнинг ҳосилдорлигига озиқлантириши меъёрларининг таъсири.* SCHOLAR scientific journal. (ISSN 2181-3523). Vol.2. No.1 (2023): P-178-181.

5. ЎзПТИ. (2007). *Дала тажрибаларни олиб бориши услублари.* «ALBIT» МЧЖ.

6. <https://m.kun.uz/news/2023/02/10/tolibonni-ozbekiston-uchun-fojiali-kanalni-qurishdan-toxtatib-boladimi-ekspertlar-bilan-suhbat>

O‘O‘T:633.361;631.84

**TRITIKALE - CHORVACHILIK RIVOJI UCHUN MUHIM  
OZUQA MANBAI**

**Amanov Oybek Anvarovich,**

Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

**Sarmonov Sherzod Shermamatovich,** q/x.f.f.d., k.i.x.

Janubiy dexqonchilik ilmiy tadqiqot instituti.

**Xidirov Jasur Ernazarovich,**

Tayanch doktorant.

Janubiy dexqonchilik ilmiy tadqiqot instituti.

***Annotatsiya:** Respublikamizda ozuqa ekin sifatida tritikale yetarlicha yetishtirilmasligi sababli, chorvachilikda ozuqaga boy yem-xashak ekinlari turlarini ko‘paytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada agrar tarmog‘i uchun yangi turdagi istiqbolli ekinlarni jaxonda va Respublikamizda yetishtirilishi, tritikale ekinining mahsuldorligi va xususiyatlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tritikale, nav, do‘ragay, urug‘, ozuqa, oqsil, chorvachilik, mahsuldorlik.*

Sir emaski, insoniyatning aql tafakkuri ta’sirida ilm-fan sohasida yaratilgan bir qancha ixtirolar, g‘oyalar to‘lqini sizni bizni odatiy hayot tarzimizda doimo qurshab turadi. Ayniqsa qishloq xo‘jaligida bo‘ladigan har bir ilmiy izlanish, yangilanishning yuksak bahosi qadr-qiymati bor. Birgina misol, 1931 yilda seleksioner olimlarning ilmiy tadqiqotlari natijasida yangicha nom olgan tritikale o‘simligini olaylik.

Qishloq xo'jaligida olib borilgan muvofaqiyatli ilmiy izlanishlar natijasida inson omili bois yangi ekin turi sun'iy tarzda yaratildi. Bunday olamshumul yangilik dunyo agrar tarmog'ini yangi bir bosqichga olib chiqdi, yangi navning yaratilishi – seleksiyaning muvofaqiyatli yutug'i bo'ldi.

Insoniyat tomonidan ikki xil botanik turkum – bug'doy va javdarni chatishtirish orqali yangi nav paydo bo'lishi, unga bug'doy va javdar duragayi, triticale deb nomlandi (triticum va secale - qattiq bug'doy va javdar nomining birinchi bo'g'inidan hosil bo'lgan). E'tiborli jihati shundaki, bu o'simlikning hosildorlik, oziqaviylik sifati o'ta yuqori bo'lishi bilan bir qatorda noqulay tuproq-iqlim sharoitlarga va xavfli kasalliklarga chidamliligi bo'yicha bug'doy va javdarga nisbatan kuchli. Uning doni tarkibida esa oqsil va lizin, triptofan kabi almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga boy.

Shu bilan birga tritikale donning tarkibidagi oqsil moddasi bug'doyga nisbatan 3-4 foiz ko'p, kleykovina miqdori bug'doynikidek, javdarga nisbatan esa 2-4 foiz ko'p, lekin sifati pastroq. Tritikalening tarkibida bug'doyga nisbatan erkin almashtirib bo'lmaydigan lizin, valin, leysin va boshqa aminokislotalar ko'proq saqlanadi, shuning uchun tritikalening biologik qiymati bug'doydan baland.

Asosan tritikalening doni non pishirishda, konditerlik sanoatida, pivo pishirishda va chorva mollariga oziqa sifatida keng foydalaniladi. Non pishirish sifati bug'doyga nisbatan pastroq, lekin bug'doy unini (70-80 foiz) tritikale uni bilan (20-30 foiz) aralashtirilsa juda yaxshi sifatli non tayyorlanadi. Shu bois ham tritikale yurtimizda istiqbolli ekinlar qatoridan o'rin olgan.

Tritikale qishloq xo'jaligida yangi oziq-ovqat, yem-xashak ekini hisoblanib, asosan sug'oriladigan va lalmikor yerlarda yetishtiriladi. Hozirda tritikalening serhosil, kasalliklarga, noqulay sharoitlarga chidamli navlarini yaratish va yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha dunyoning turli mamlakatlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tritikale yetishtiruvchi asosiy davlatlar – Polsha, Germaniya, Belorussiya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Vengriya, Ispaniya, Litva va Avstraliya hisoblanadi.

Tritikale avlodlararo duragay bo‘lganligi uchun unda bug‘doy va javdarning irsiy belgilari hamda xususiyatlari mavjud. Boshog‘ining ko‘rinishi, tuzilishi, donining shakli bug‘doy va javdarni eslatadi. Ammo tritikale bug‘doydan quyidagi belgi va xususiyatlari bilan ajralib turadi: poyasi bug‘doynikiga qaraganda yo‘g‘on, pishiq, yotib qolishga chidamli, bargi va boshog‘i katta, doni ham yirik. Doni tarkibida oqsil moddasi bug‘doynikiga nisbatan 1,0–1,5% va javdarga nisbatan 3,0–4,0% ko‘p. Doni tarkibida 3,8% lizin va 2,0–4,0% yog‘ bor.

Tritikale urug‘i 6–12 °C da yaxshi ko‘karib chiqadi, yaxshi qishlaydi, sovuqqa chidamli, ildiz tizimi yaxshi rivojlanadi. Suvga eng talabchan davri – naychalashdan boshqoq chiqarishgacha. Bu davrda nam yetarli bo‘lmasa, boshog‘i kichik va kam hosilli bo‘lib qoladi. Tritikale bug‘doyga o‘xshab o‘z-o‘zidan changlanuvchi hisoblanadi. O‘sib-rivojlanishida bug‘doy, javdar, arpa va boshqa boshqoqli ekinlar singari unib chiqish, tuplash, naychalash, boshqoqlash, gullash, sutpishish, mum pishish va to‘liq pishish fazalarini o‘taydi. Urug‘lari 3–4 °C da una boshlaydi. Unib chiqishi uchun o‘rtacha maqbul havo harorati 20–22 °C hisoblanib, 6–8 kunda unib chiqadi. Nihollar unib chiqqandan so‘ng, 34–37 kunda tuplanish sodir bo‘ladi.

O‘zbekistonda tritikale asosan kuzda tuplaydi. O‘zbekistonda rayonlashtirilgan tritikale navlari bug‘doyga nisbatan biroz kech yoki kech pishar bug‘doy navlari bilan bir vaqtda pishsa, Meksikadan keltirilgan navlarning ko‘pi bug‘doyga nisbatan 10–15 kun ertapishadi, ba‘zilari bug‘doyga nisbatan 20–25 kun oldin boshqoq chiqaradi. Bunday tritikale navlaridan (don va ko‘k massa uchun ekilgan tritikale) foydalanilsa yerni erta bo‘shatib, o‘rniga ikkinchi ekin ekish mumkin. Bu ekinni kuchli sho‘rlangan yerlarga ekish tavsiya etilmaydi. Yer ekishga sifatli tayyorlansa, urug‘lik bir xil chuqurlikka (ekish chuqurligi 5–6 sm) tushishi va yaxshi unib chiqishi ta‘minlanadi. Gektariga 50–60 s hosil yetishtirish uchun organik o‘g‘it bilan



birga sof holda 180–200 kg/ga azot, 100–160 kg/ga fosfor, 60–70 kg/ga kaliyli o‘g‘itlar qo‘llanilishi kerak.

O‘tkazilgan ilmiy izlanishlarga ko‘ra, tritikale donining kimyoviy tarkibi o‘g‘itlantirish holatiga bog‘liq ekan. Tritikalening don hosili o‘g‘it miqdori oshib borishi hisobiga 0,83–1,68 t/ga ko‘payadi. Azot miqdorining oshirilishi donning texnologik holatini ham yaxshilaydi.



Tritikaleni yurtimizda janubiy mintalariga moslashtirish va yangi navlarini yaratish ustida izlanishlar olib borish maqsadida Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida bir qator izlanishlar va ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, voha sharoitidan kelib chiqib uning 50 dan ortiq duragay tizmalari va davlat restrga kiritilgan ikkita nav (Sardor va Tixon) laboratoriya sharoitida suvsizlikka va issiqlikka chidamliligi o‘rganildi. Shuningdek, bu jarayon institutning dala tajriba



maydonlarida (asosan: Qamashi va G‘uzor tumani tajriba-sinov agrouchastkalari) suvli va lalmikor ekin maydonlarida ilmiy tadqiqot ishlari, izlanishlar davom ettirilmoqda. Shu boisdan, institut tajriba

maydonlarida o‘rganilayotgan tritikale nav va namunalarining ishlab chiqarish hamda qayta ishlash talablariga mos keladigan nav va namunalari tanlab olinib seleksiya ishlari olib borilmoqda. Sifat ko‘rsatgichlari yuqori bo‘lgan namunalar aloxida ko‘chatzor etib, o‘simliklar fenologiya qilinganda erta

pishar, qurg‘oqchitlikka va issiqlikka chidamli va boshqa ko‘rsatgichlariga qarab tanlash ishlari olib borilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad ham yurtimizda chorvachilik sohasini sifatli ozuqa manbai bilan ta‘minlash va boyitishdan iborat.

Takidlash joiz, Respublikamiz chorvachiligi uchun mustahkam ozuqa bazasi yaratishda ozuqabop ekinlarning yuqori hosildor navlaridan foydalanish, ularni yetishtirishda agrotexnik tadbirlarga to‘liq rioya qilish hamda zamonaviy

texnologiyalarni qo'llash muhim amaliy ahamiyatga ega va chorvachiligimizni yanada rivojlantirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Tritikale o'simligi esa bu borada muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. D.T.Abdukarimov tritikale seleksiyasi bo'yicha, Atabaeva X.N., Xudayqulov J.B.// O'simlikshunoslik. T.: Fan va texnologiya- 2018. – B.3-407.
2. B. B. Allashov , B.X.Junadullaev, N. T. Shoymurodov , S.I. Mavlonov .  
//Oziqabop ekinlarni yetishtirish . Toshkent- 2021 yil
3. R.O. Oripov, N. X Xalilovlar // Usimlikshunoslik kitobi
4. O.Yakubov , S. tursunov, J. Muqimov. // Donchilik.
5. Mirzaev O.F, Xudoyberdiev T.S //Yemxashak yetishtirish.

UO‘K 635.657.632.4.934

**NO‘XAT NAVLARINING ASCOCHYTA RABIEI ZAMBURIG‘IGA  
CHIDAMLILIGINI EKSPRES BAHOLASH**

**Begimqulova Sevara Meyliyevna**

Tayanch doktorant

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot-instituti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada no‘xatning *Ascochyta rabiei* zamburug‘ kasalligini laboratoriya sharoitida tezkor aniqlash asosida chidamli navlarni ekish uchun tavsiya qilish borasida tadqiqot natijalari yorilgan.*

***Kalit so‘zlar:** no‘xat, *Ascochyta rabiei* zamburug‘, janubiy voha, ekspress tahlil, infeksiya, inokulyatsiya, zararlanish, vegetativ idishlar*

***Аннотация:** В статье представлены результаты исследований по рекомендации сортов гороха для посадки устойчивых сортов на основе экспресс-диагностики грибного заболевания *Ascochyta rabiei* в лабораторных условиях.*

***Ключевые слова:** горох, гриб *Ascochyta rabiei*, южный оазис, экспресс-анализ, заражение, инокуляция, повреждение, вегетативные сосуды.*

***Annotation:** The article presents the results of research on the recommendation of pea varieties for planting resistant varieties based on the rapid diagnosis of the fungal disease *Ascochyta rabiei* in the laboratory.*

***Key words:** pea, fungus *Ascochyta rabiei*, southern oasis, rapid analysis, infection, inoculation, injury, vegetative vessels.*

Bugungi kunda respublika hududlarining sug'oriladigan va lalmi maydonlarida 21,8 ming gektar, shundan janubiy mintaqalarda 6,5 ming gektar no'xat yetishtirilmoqda. So'ngi yillarda respublika hududlarida qishloq xo'jaligini isloh qilish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda o'simliklarni himoya qilish sohasida biologik usuldan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Jahondagi ilg'or tajribalar, yuqori standartlar kimyoviy kurash choralarini boshqa barcha himoya usullaridan keyin qo'llashni tavsiya etilmoqda. Chunki, inson salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan pestitsidlar yoki biopreparatlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ammo ayrim ekin turlarini zararli organizmlardan himoya qilishda faqat kimyoviy kurash yuqori samara beradi.

No'xat etishtirish joylarida eng zararli kasallik ascochitosis hisoblanadi. Ushbu kasallikning qo'zg'atuvchisi *Ascochyta rabieizamburigi*dir. U o'simlikning deyarli butun vegetatsiya jarayoniga barg, poya, dukkak va urug'larga ta'sir qiladi [1]. Dastlab barglarda oval-yumaloq jigarrang dog'lar paydo bo'ladi, keyinchalik ular poya va yon novdalarda ham paydo bo'ladi. Ta'sirlangan barglar quriydi va to'kilib tushadi, ta'sirlangan joylarda ildizda so'lish alomatlari kuzatiladi. Kasallikning INFEKTSION kuchli tarqalishi bilan butun dalada o'simliklar nobud bo'lishi mumkin va kasallika nisbatan erta kurash olib borilmasa zararlangan nihollar zaifroq bo'lib, o'simlik o'sishdan to'xtaydi (qotadi), preparat vositalari qo'llanganda kechkish oqibatida ammo no'xatning vegetatsiya davri uzayib bundan to'la shakillanmagan puch urug'lar miqdori hosil miqdori va sifatiga salbiy ta'sir qiladi.

